

HAVOLA BO‘LAKLI QO‘SHMA GAPLAR TARAQQIYOTI

REJA:

BMI ning umumiy tavsifi

I bob. O‘zbek tilshunosligida qo‘shma gaplarning o‘rganilishi

1.1. Ergash gapli qo‘shma gaplar va ularning tasnifi masalasi

1.2. O‘zbek tilshunosligida havola bo‘lakli qo‘shma gaplar tasnifi

II bob. Tarixiy manbalarda havola bo‘laklarning qo‘llanishi va ularning tasnifi

2.1 Tarixiy manbalar tilida havola bo‘lakli qo‘shma gaplarning qo‘llanishi.

2.2 Ko‘p komponentli qo‘shma gaplar tarkibida havola bo‘lakli gaplar.....

III bob. Havola bo‘lakli qo‘shma gaplarning semantik-sintaktik xususiyatlari.

3.1 Bir havola bo‘lakli qo‘shma gaplarning semantik-sintaktik xususiyatlari

3.2 Ikki havola bo‘lakli qo‘shma gaplarning semantik-sintaktik xususiyatlari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

BMINING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Mintaqamizda va butun dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab geosiyosiy sharoitda bizning zimmamizda mamlakatimizning xavfsizligi barqarorligini ta'minlash, shu muqaddas zaminimizda hukm surayotgan tinch-osoyishta hayotni saqlash kabi bir-biridan mas'uliyatli va keng ko'lamli bir qator vazifalar borki, yurtimizning bugungi va ertangi kuni ana shu masalalarni qanchalik muvaffaqiyat bilan hal etishimizga bog'liqdir. Ana shunday vazifalardan biri tilimizning maqomini tobora yuqorilatish, uning dunyodagi rivojlangan boshqa tillar qatoriga chiqarish va uning o'z jozibasi va tarovatini dunyo ahliga namoyon qilishdan iboratdir. Bunda, eng avvalo, ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish barobarida, uning tarixiy ildizlarini chuqur o'rganish va ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish bugungi kunda o'ta dolzarb masala ekanligini ta'kidlash o'rinli.

Har bir xalqning ruhiy dunyosi, urf-odatlari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy ahvoli aks etadigan vositalardan biri bu bevosita til hisoblanadi. Shu bois til xalq ziynatining xolis va mumtoz ko'zgidir, desak yanglishmagan bo'lamiz. Bu o'rinda German Paulning «Insoniyat yaratgan barcha madaniyat singari til ham tarixiy jihatdan tekshiriladigan predmetdir» degan fikri diqqatga sazovordir. Shuning uchun har bir kishi til haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lsa, o'z tilining tovushlar tizimi, lug'at boyligi, so'z qo'llash imkoniyatlari, jumla tuzish mashaqqatlarini atroflicha his etsa, til va xalqning ham tarixini anglay oladi.

O'zbek tili sintaksisi o'zining ham tarixiy, ham hozirgi zamon tili jihatidan asoslangan mukammal ildizlarga ega. O'zbek tilining har tomonlama taraqqiy topishi va adabiy til sifatida maydonga chiqishida qadimiy turkiy til katta hissa qo'shganini, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi ilmu fan va adabiyot namoyandalarining xizmati va qoldirgan merosini o'rganish va ularda ko'tarilgan masalalarni hayotimizga tadbiiq qilish muhim ahamiyatga molik.

Ma'lumki, o'zbek tilining barcha sathlari o'zaro bog'liqlikda, bir-birini taqozo qilgan holda namoyon bo'ladi. Shu jumladan, grammatik sath ham. Grammatik sath esa sintaktik birliklarsiz mavjud bo'la olmaydi. Shunday sintaktik birliklardan biri tarkibida havola (deyxisis) bo'lagi mavjud bo'lgan gaplardir.

Albatta, sintaksis sohasining tarixiy xususiyatlari nisbatan o'rganilgan bo'lsa-da, ammo uning hozirgi zamon tili jihatidan o'rganilganligi haqida bunday deyish noo'rindir. Ya'ni o'zbek tilining sintaksis sathi ko'p marta taniqli tilshunoslar tomonidan tadqiq qilingan va hozirga qadar bu jarayon davom etib kelmoqda.

Sintaksis bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borilishi, ushbu sohadagi mavjud bilimlarni yanada mustahkamlash, ularning yangi jihatlarini tadqiq qilish bilan birga hozirgi zamon o'zbek tili sintaksisidagi muammoli vaziyatlarni yuzaga keltiryapti. Albatta, bunday muammolar tilshunoslikda turli fikr va qarashlardan yuzaga keladi.

Bizning mazkur BMImizning tadqiqot obyekti bo'lgan havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplar haqida ham shunday fikrlarni aytishimiz mumkin.

Ma'lumki, qo'shma gaplar haqida hozirgi o'zbek tilida bir qator munozarali masalalar mavjud. Shu masalalarni qisman bo'lsa-da o'rganish, yuqorida ta'kidlangan muammolar haqida o'z fikrlarimizni berib o'tish uchun, shu sohaga oid bo'lgan ilmiy tadqiqotlar, ilmiy adabiyotlar bilan tanishishga harakat qildik.

Ushbu jarayonda shunga guvoh bo'ldikki, aynan havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplar nafaqat hozirgi o'zbek tilida, balki o'zbek tilining tarixiy davrlarga xos bo'lgan bosqichlarda ham atroflicha o'rganilgan emas. Bu esa biz o'rganmoqchi bo'lgan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari:

Ushbu BMIdan ko'zlangan asosiy maqsad klassik manbalardagi havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplarning shakliy va mazmuniy xususiyatlarini tadqiq etishdir. Shu asnoda tadqiqot oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- matnda ishtirok etgan havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplarni ajratib olish;

- havola bo‘lakli ergash gapli qo‘shma gaplarning shakliy xususiyatlarini ochib berish;

- havola bo‘lakli ergash gapli qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarning soniga ko‘ra ularni guruhlash;

- havola bo‘lakli ergash gapli qo‘shma gap tarkibidagi gaplarning bog‘lanishini tadqiq etish;

- havola bo‘lakli ergash gapli havola bo‘lakli ergash gapli qo‘shma gaplarning boshqa sintaktik birliklar bilan munosabatni aniqlash.

Tadqiqot obyekti. O‘zida o‘zbek tili materiallarini aks ettirgan yozma manbalar, matni, gap qurilishlari.

Tadqiqotning metodologik asosi. Ishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ma’naviyat, ma’rifat, milliy va umumbashariy qadriyatlar to‘g‘risidagi fikr-mulohazalari, milliy til va madaniyatning rivojlanish tarixi, taraqqiy etish yo‘llari haqidagi qarashlari, o‘zbek tilshunos olimlari G‘.Abdurahmonov, M. Asqarova va A. G‘ulomovlar, shuningdek, N.Mahmudov, A.Nurmonovlarning gap sintaksisi haqida olib borgan ishlari, dialektikaning mazmun va shakl, butun va qism, analiz va sintez, mantiqiylik kabi kategoriyalari metodologik asos bo‘ldi. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy, uzviy va diaxron tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Qo‘shma gaplar o‘zbek tili sintaktik sathining oliy birligi hisoblanadi. Shu sababli havola bo‘lakli ergash gapli qo‘shma gaplar yillar davomida o‘rganilyapti. Bizning BMIda havola bo‘lakli ergash gapli qo‘shma gaplarning sintaktik va semantik munosabatlari tadqiq qilindi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalaridan, ayniqsa, yig‘ilgan faktik misollardan eski o‘zbek tili sintaksisi darslarida material sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqotning manbalari. Ishning asosiy tadqiqot manbalarini Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Nosiruddun Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy”, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”, va “Layli va Majnun” kabi asarlaridagi misollar tahlili asosida yuritildi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. BMI mavzusi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida yig‘ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilingan.

BMIning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlar rejasi asosida amalga oshirilgan.

Ishning tuzilishi. Mazkur BMI kirish, 3 bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I BOB

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA QO‘SHMA GAPLARNING O‘RGANILISHI

1.1. Ergash gapli qo‘shma gaplar, ularning tasnifi masalasi.

Qo‘shma gap til sintaktik sathining oliy birligidir. Sodda gap ham sintaktik sath birligi hisoblansa-da, u qo‘shma gapga qaraganda anchayin ixcham birlikdir. Qo‘shma gap sodda gapda neng avvalo mazmun sig‘imining kattaligi, mazmuniy-sintaktik tuzilishining o‘ziga xosligi, murakkabligi bilan farqlanadi. Albatta, har ikki gap turi - sodda gap ham, qo‘shma gap ham muayyan hukm ifodachisi sifatida mavjud bo‘lsa-da, tilning kishilar o‘rtasida aloqa vositasi bo‘lishday eng muhim vazifasi bevosita gaplarda namoyon bo‘lsa-da, sodda va qo‘shma gaplar tuzilishi va mazmuniy tarkibi hamda bu tarkibni yuzaga keltiruvchi uzvlar munosabati ularning har birida mutlaqo o‘ziga xosdir. Mantiq fani nuqtai nazaridan olib qaraladigan bo‘lsa, sodda gaplarda asosan sodda hukm, qo‘shma gaplarda esa murakkab hukm ifodalanadi.¹

CHozirgacha mavjud lingvistik adabiyotlarda qo‘shma gaplar grammatik shakli va komponentlarining munosabatiga qarab bog‘lovchisiz, bog‘langan ergash gapli qo‘shma gaplarga bo‘lib o‘rganilayotganini kuzatamiz. Ammo mazkur ishimizning mavzusi keng komponentli murakkab sintaktik qurilmalar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgani uchun quyida, asosan, qo‘shma gapning bog‘lovchili va bog‘lovchisiz turlari xususida mulohaza yuritamiz.

O‘zbek tilidagi ergash gaplarning tasnifi umuman boshqa tillardagi ergash gaplarning tasnifiga yaqin turadi. Bu tasodifiy emas, albatta. Chunki turkiy tillardagi, shuningdek, boshqa tillardagi ergash gap nazariyasi sodda gap nazariyasi bilan uzviy bog‘langan. Ergash gaplarni sodda gaplardagi muayyan bo‘laklarni nisbatlash tilshunoslarda juda uzoq an‘anaga ega .

Ayrim tilshunosliklarda, masalan, ispan tilshunosligida ergash gaplarning vazifasini so‘z turkumlarining sodda gaplardagi vazifasi bilan tenglashtirishdan

¹ Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Т., Фан. 1992.

iborat qarash ham bor. Lekin bu qarashlar ham avvalgi qarashdan mohiyatan unchalik farq qilmaydi.

Rus tilshunosligida bunday qarashlarning shakllanishiga batafsil to'xtab o'tilmasdan, V.A.Beloshapkovaning umumlashtirishlariga murojaat qilib qo'ya qolgan ma'qul. U yozadi: "Rus sintaksis ilmidagi turli davrlarda ergash gapli qo'shma gaplarni tasniflashning uch prinsipi ilgari surilgan edi. Ergash gapli qo'shma gaplarni yaxlitligicha sodda gaplarga, ergash gaplarni esa sodda gap bo'laklariga o'xshatishga asoslangan tasnif juda keng tarqaldi. Bu prinsipga asoslangan tasnif qolipi o'zining mohiyat e'tibori bilan XIX asrning o'rtalarida shakllandi. Uning yaratilishida F.I.Buslayevning xizmatlari benihoyat kattadir. Bu tasnifning asosiy prinsipiga muvofiq ergash gaplar orasida ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol ergash gaplar farqlanadi, hol ergash gaplarning turlari sifatida o'rin, ravish, daraja va miqdor, payt, sabab, maqsad, shart, to'siqsizlik ergash gaplar ajratiladi.

Ergash gaplarning bosh gapni yaxlitligicha izohlashi yoki uning biror bir bo'lagi bilan aloqador bo'lishi haqidagi qarash turkiyshunoslikda ham keng tarqalgan. Masalan, M.A.Asqarova shunday ta'kidlaydi: "Ergash gap esa mazmun va strukturasi ko'ra bosh gapdan ko'ra boshqacharoq tuzilib, bosh gapning bo'lagini yoki bosh gapni yaxlitligicha izohlaydi". Ozarbayjon tilidagi ergash gapli qo'shma gaplardagi bosh va ergash gap munosabatidagi ayni xususiyatni ta'kidlagan holda A.Z. Abdullayev va A.G.Javodovlar turkiy tillardagi, xususan, ozarbayjon tilidagi ergash gapli qo'shma gaplarni ikki mazmuniy - sintaktik guruhga – bir mazmuniy va ikki mazmuniy yadroli gaplarga ajratishni tavsiya qiladilar. Bunda ular bosh gapdagi biror bo'lakni izohlaydigan ergash gapli qo'shma gaplar ko'proq bir mazmuniy yadroga va bosh gapni yaxlitligicha izohlaydigan ergash gapli qo'shma gaplar ko'proq ikki mazmuniy yadroga ega bo'lishini aytadi. Lekin, garchi mualliflar bunday tasniflashni barcha turkiy tillar uchun tavsiya qilayotgan bo'lsa-da, uni o'zbek tili uchun to'lig'icha tatbiq etib bo'lmaydi. Chunki ular farqlayotgan bir mazmuniy yadroli va ikki mazmuniy yadroli qo'shma gaplar tushunchalari bir denotativ voqeani ifodalagan.

G'.Abdurahmonov ergashgan qo'shma gaplarda ikki yoki undan ortiq sodda gaplar o'zaro hokim-tobe munosabati orqali bog'lanishi, ergash gap bosh gapga tobe bog'lanib, bosh gapdagi biror bo'lakni izohlab kelishi, bosh va ergash gap grammatik hamda mazmunan jips bog'lanib, yaxlit birlikni tashkil etishi va umumiy bir fikrni ifodalashini qayd etadi. Ular o'zaro fe'lning amaliy shakllarining qo'llanishi (turli grammatik vositalar bilan birikkan sifatdosh, ravishdosh va shart fe'li), yordamchi so'zlar orqali munosabatga kirishishini ta'kidlaydi.²

Sintaktik o'rin gapdagi predikatni ifodalagan so'zning ma'nosi va, demak, valentligiga ko'ra yuzaga keladi. Boshqacha aytganda, bosh gapning kesimi vazifasidagi so'zning ma'nosi va valentligi ergash gapning mohiyatini va qo'llanishini ta'minlaydi. Predikatning valentligiga ko'ra yuzaga keladigan sintaktik o'rin, agar predikatning mazmuniy imkoniyati yo'l qo'ysagina, tobe predikativ birlik tomonidan egallanishi mumkin. Aks holda ergash gapli qo'shma gap tarkib topmaydi. Shuning uchun ham ayrim tilshunoslar ergash gapli qo'shma gap tarkibini tasvirlashda valentlik nazariyasidan foydalanadilar. Ergash gapli qo'shma gaplarning mazmuniy sintaksisni o'rganishda ham o'rni bilan valentlik nazariyasiga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

Aytilgan mulohazalardan shu narsa kelib chiqadiki, ergash gapli qo'shma gaplarni o'rganishda baribir sodda gaplardagi bo'laklarning vazifalaridan andoza olgan ma'qul. Chunki yaxlit pozitsion struktura (sintaktik o'rinlar tizimi) sifatida ergash gapli qo'shma gaplar sodda gaplardan deyarli farq qilmaydi. Ergash gapli qo'shma gaplarda gapning grammatik "sinchi" (karkasi), asosini bevosita bosh gap tashkil qiladi. Ergash gap esa u yoki bu tarzda ana shu bosh gap tarkibiga muayyan bir bo'lak sifatida kiradi. "Bosh gap tarkibidagi muayyan bo'lakni izlaydigan ergash gaplar" deb ajratilganda ham shu narsa nazarda tutiladi.

"Bosh gapni yaxlitligicha izohlaydigan ergash gaplar" degan ibora aslida ham bosh gapdagi muayyan bir bo'lak – hol vazifasida kelishga xoslangan. N.Mahmudov yozadi: "Ergash gaplarning bu tipini baholashda ko'pincha ayrim

² (Абдурахмонов F., 1996. 185.

tilshunoslar ularni hol ergash gaplar deyishdan o'zlarini tiyadilar. Shu munosabat bilan R.Sayfullayeva: "Hol ergash gapli qo'shma gap bilan ikkinchi darajali bo'laklardan biri bo'lgan hol turlarining son jihatdan teng kelmasligidan cho'chiymizmi?! Hol predikativ birlik emas, balki u gap bo'lagidir. Hol ergash gap esa predikativ birlik bo'lib, diskursning bir elementi. Demak, hol bilan hol ergash gapni bir planda o'rganib bo'lmaydi, ular semantik turlarining son jihatdan teng bo'lishi shart emas". Lekin R.Sayfullayeva bir an'anadan chiqib keta olmaydi"³.

Aslida "butunicha izohlaydi", "bosh gapga butunicha aloqador bo'ladi" qabilidagi iboralarning o'zi aniq emas. Qanday qilib ergash gap yaxlit bosh gapni izohlashi mumkin? Har qanday gap bo'lagi (aniqlovchi bundan mustasno) funksional jihatdan faqat kesimga aloqador bo'ladi. Keng ma'nodagi hol sintaktik o'rni egallagan predikativ birlik, ya'ni, demak, ergash gap ham yaxlit bosh gapga emas, balki uning bir konstruktiv bo'lagi – kesimga aloqador bo'ladi. Masalan: Bahor kelgach, o'lkamizning hamma yerida gullar ochiladi gapidagi ergash gap (bahor kelgach) bosh gapning kesimi vazifasidagi ochilmoq fe'lining ma'nosi va valentligiga ko'ra mavjud bo'lgan va payt ifodasi bilan berilishi lozim bo'lgan sintaktik o'rinni berkitadi, ya'ni bosh gapdagi hol vazifasidagi predikativ bo'lak sifatida bevosita kesimga bog'lanadi. Hatto ergash gapning o'rni ham almashtirish mumkin: O'lkamizning hamma yerida gullar bahor kelgach, ochiladi. Bunday tip ergash gapli qo'shma gaplarda ergash va bosh gaplar bir qadar bir-biridan mustaqil tuyuladi, bosh gapdagi biror bo'lak bilan aloqalanadigan ergash gapli qo'shma gaplarda ega bunday emas, ergash va bosh gaplar anchayin zichroq bog'langan. Bu holat ham, ehtimol, oldingi tip gaplarda ergash gap yaxlit bosh gap bilan aloqalanadi, degan qarashlarga olib kelsa kerak. Ammo gapdagi sintaktik o'rinlar orasida hol sintaktik o'rni o'zining nisbiy mustaqilligi bilan alohida ajralib turadi. Boshqacha aytganda, gapning hol bo'lagi, shubhasiz, kesimga tobe bo'lsa-da, kesim pozitsiyasidagi so'zning kuchli sintagmatik valentligini mutaqo reallashtira olmaydi. Ta'kidlash lozimki, hol gapning asosiy mazmunini tashkil qiluvchi voqea bilan u yoki bu jihatdan bog'langan voqeani

³ Махмудов Н. ва б. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Тошкент, Ўқитувчи. 1992. 241-б.

ifodalovchi gap bo‘lagi bo‘lib mazmun tomondan “gap ichida gap ifodalovchi” sifatida kelishdek o‘ziga xoslik bilan xarakterlanadi. Bu, tayinki, predikativ birliklarni bu sintaktik o‘rinni egallab, u sodda gapda bo‘lsa ham, ergash gapli qo‘shma gapda bo‘lsa ham nisbatan erkin deb qarash mantiqiydir.

Ko‘rinadiki, ergash gaplarning har qanday turi ham u yoki bu tarzda bosh gapda muayyan bir gap bo‘lagi bilan aloqalanadi. Tabiiyki, bu aloqalanish usullari xilma xil. Lekin bundan boshqacha deb qarash, ya’ni ergash gap yaxlit bosh gap bilan aloqalanadi, deb qarash bosh gapdagi kesimning mazmuniy – sintaktik maqomini kamsitishga olib keladi. Shuning uchun ham N.A.Baskakov hozirgi turk tilidagi ergash gaplarni quyidagicha guruhlarga ajratadi:

Bosh gapdagi substantiv bo‘laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruhga ega va to‘ldiruvchi ergash gaplarni kiritadi.

Bosh gapdagi atributiv bo‘laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruhga ega va to‘ldiruvchi ergash gaplar kiradi.

Bosh gapdagi atributiv – hol bo‘laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruhga sabab-natija, shart, to‘siqsiz, maqsad, payt, o‘xshatish va chog‘ishtirish ergash gaplarni kiritadi.

Ergashgan qo‘shma gaplarning guruhlanishi ergash gapning bosh gapdagi qaysi bo‘lakning izohlab kelishiga qarab belgilanadi. Shuni aytish kerakki, ergash gaplarning tasnifida tilshunoslar o‘rtasida umumiylik bor. O‘zbek tilshunosligida ergash gaplar mazmuniy – shakliy jihatdan 14 turga ajratiladi: 1) ega, 2) kesim, 3) to‘ldiruvchi, 4) aniqlovchi, 5) ravish, 6) o‘lchov daraja, 7) chog‘ishtirish-o‘xshatish, 8) sabab, 9) maqsad, 10) payt, 11) o‘rin, 12) shart, 13) to‘siqsiz, 14) natija ergash gaplar⁴. N.Mahmudov ham ergashgan qo‘shma gaplar semantikasini ayni shu tasnif asosida tahlil etadi⁵. G‘.Abdurahmonov esa ularni quyidagi turlarga ajratadi: 1) aniqlovchi, 2) to‘ldiruvchi, 3) ega, 4) kesim, 5) payt, 6) sabab, 7) shart, 8) maqsad, 9) to‘siqsiz, 10) natija, 11) ravish, 12) qiyos, 13) umumlashtiruvchi -

⁴ Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент, Ўқитувчи. 1987. 187-б.

⁵ Маҳмудов Н. ва б. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Тошкент, Фан. 1992. 243-б.

izoh ergash gaplar⁶. Uning bu tasnifida yuqoridagi barcha qo'shma gaplar aks etgan bo'lsa-da, qiyos va umumlashtiruvchi ergash gaplar asossiz maydalashtirilib yuborilgan. Masalan, umumlashtiruvchi - izoh ergash gapli qo'shma gaplar tabiati haqida to'xtalar ekan, u shunday yozadi: «Ergash gaplarning shunday turlari borki, ular bosh gapga analitik-sintetik yo'l bilan bog'lanadi. Bu holda bosh va ergash gap o'zaro nisbiy olmoshlar orqali birikib, ergash gapning kesimi shart mayli orqali ifodalanadi. Demak, bunday ergash gaplar bosh gapga asosan leksik vositalar va shart mayli orqali bog'lanadi. Bu bog'lanish ikki tomonlama bo'lib, bog'lovchi leksik vositalar ham ergash gap, ham bosh gap tarkibida qo'llanadi»

Bunday qo'shma gaplarga shunday misollar keltiradi: *Kimning ko'ngli to'g'ri bo'lsa, uning yo'li ham to'g'ri bo'ladi* (Maqol). *Kimki har yili chigitni yerning namiga erta ekar ekan, u mo'l hosil oladi* (Gaz.). *Qayerdagi tartib buzilar ekan, u yerda xo'jalik katta zarar ko'radi*⁷.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ergash gaplarning tasnifi ularning bosh gapdagi qaysi bo'lakning izohlashi bilan belgilanadi. Yuqoridagi misollarning birinchisida ergash gap bosh gapdagi aniqlovchini, ikkinchisida egani, uchinchisida esa o'rin holini izohlab kelmoqda. Anglashiladiki, bu tasnifda yuqoridagi tamoyil buzilgan. Bu o'rinda N.Mahmudov iborasi bilan aytganda, havola bo'laklarning ishtiroki asos qilib olingan⁸. Quyida adib asarlaridagi qo'shma gaplar semantikasi haqida so'z yuritamiz. Alisher Navoiy nasriy asarlarida bir bosh bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplarning ayni subyektli va turli subyektli turlari qayd qilinadi.

Alisher Navoiy asarlaridagi ayni subyektli bir bosh bo'lakli ergashgan qo'shma gaplarni tadqiq etish jarayonida shu narsa alohida ko'zga tashlandiki, bunday gaplar shart ergash gapli qo'shma gaplar doirasida ko'proq xoslangan ekan.

Akademik V. Vinogradovning fikriga ko'ra, qo'shma gapning, shu jumladan, bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gaplarning ham tarkibiy qismlari struktur-

⁶ Абдурахмонов Ф. 1996, 191-216.

⁷ Абдурахмонов Ф. 1996. 216-217.

⁸ Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. -Тошкент, Фан. 1992, 245

sintaktik va mazmuni jihatlaridan bir-biri bilan aloqada bo‘ladi. Bog‘langan qo‘shma gap tarkibiy qismlari, ergash gapli qo‘shma gap tarkibiy qismlaridan farqli ravishda, teng bog‘lanishli, teng munosabatli ko‘rinsada, bu tarkibiy qismlarning faqat birinchisi erkin qurilishli deb hisoblash mumkin, ikkinchisi struktur ko‘rinishi hamda sintaktik holatiga ko‘ra birinchisiga qandaydir ma‘noda tobe bo‘ladi. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibiy qismlari esa ritm hamda melodik vositalar, leksik unsurlar ishirokida aloqaga kirishadi va bunda ham analogik vaziyat kuzatiladi⁹. V. Vinogradovning mazkur fikri ancha asosli. Chunki bog‘langan va bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar komponentlarining o‘zaro semantik va sintaktik munosabatlari shundan dalolat beradi. Bu, ayniqsa, qo‘shma gapning kommunikativ vazifa bajarishida aniqroq namoyon bo‘ladi. Biroq, V. Vinogradov tomonidan qo‘llangan “tobelik” tushunchasi ayni paytda ergash gapning bosh gapga tobelik darajasi bilan tenglashtirmaslik lozim.

Qo‘shma gap ikki yoki undan ortiq sodda gaplarning mexanik tarzdagi birikuvini emas, balki muayyan kommunikativ vazifa bajarilishi uchun xizmat qiluvchi shakliy va mazmuniy butunlikni tashkil qilgan sintaktik qurilmalar birikuvini taqozo etadi. Shu bois qo‘shma gap o‘ziga xos murakkab shakl, ma‘no hamda ohang butunligi mahsuli sanaladi.

G‘.A.Abdurahmonov bog‘langan qo‘shma gaplarning tarkibiy qismlari nisbiy mustaqillikka ega ekanligini, buni qo‘shma gapda qo‘llanilgan bog‘lovchi vosita ko‘rsatib turishini ta‘kidlaydi. Ammo, olimning e‘tirof etishicha, bu mustaqillik grammatik jihatdandir, zotan, bog‘langan qo‘shma gapda ham uning komponentlari kesimlari alohida olinganda ma‘lum bir niyat anglashilmaydi, bir qism mazmuni ikkinchisini talab qiladi¹⁰.

G‘. A. Abdurahmonov bog‘langan qo‘shma gaplar nafaqat turkiy tillarda, balki umumiy tilshunoslik doirasida ham eng kam o‘rganilganligini to‘g‘ri ta‘kidlaydi va buning asosiy boisi bog‘langan qo‘shma gaplarning og‘zaki nutqda kam qo‘llanishida ekanligini eslatadi.

⁹ Виноградов В.В. Избранные труды. Исследования по русской грамматике. -М 1975. с. 102

¹⁰ Abdurahmonov G‘.A. Qo‘shma gap sintaksisi. – Toshkent 1964, 59-bet

G'. A. Abdurahmonov bog'langan qo'shma gaplar, bog'lovchisiz qo'shma gaplar farqli ravishda, yopiq gap qurilmalarini tashkil etishini aytadi va ularning ikki tarkibiy qismdan tashkil topishini ko'rsatadi. Bundan tashqari, olim bog'langan qo'shma gap qismlarining o'zaro munosabati orqali quyidagi mazmuniy munosabatlar ifodalanishini va mazkur munosabatlarning har birini mukammal yoritadi:

1. Qiyoslash munosabati
2. Biriktiruv munosabati
3. Ayiruv munosabati
4. Sabab va natija munosabati
5. Izohlash munosabati¹¹

M. Asqarova bog'langan qo'shma gapni teng bog'lovchilar orqali birikkan, biri ikkinchisiga grammatik jihatdan tobe bo'lmagan, teng huquqli predikativ qismlardan tashkil topgan qo'shma gapli sintaktik qurilma sifatida talqin etadi va qo'shma gap tarkibidagi komponentlar o'zaro biriktiruv, chog'ishtiruv, ayiruv, zidlov, inkor munosabatlarini ifodalovchi teng bog'lovchilar yoki bog'lovchi vazifasidagi –da, -u (-yu) yuklamalari vositasida bog'lanishini aytadi¹².

M.Asqarova bog'langan qo'shma gap komponentlarining mustaqilligi nisbiy ekanligini ta'kidlaydi va bu haqda quyidagilarni yozadi: “Qo'shma gap xususan, bog'langan qo'shma gap tarkibidagi komponentlar alohida-alohida ajratib qaralsa, ularning har biri mustaqil gapga tengday ko'rinadi, lekin ular qo'shma gap tarkibida fikriy tugallikka (to'liq mustaqillikka) ega bo'lmaydi. Shu jihatdan bunday komponentlarni mazmunan nisbiy mustaqillikka ega deyish to'g'riroqdir”.

Ko'rinadiki, M. Asqarova bog'langan qo'shma gap tarkibiy qismlarining har biri mustaqil gapga tengday ko'rinishiga qaramay, ular qo'shma gap tarkibida mazmuniy jihatdan to'liq mustaqil bo'la olmasligini, faqat nisbiy mustaqil ekanligini to'g'ri ta'kidlaydi. Bizningcha ham, bog'langan qo'shma gap komponentlarining nisbiy mustaqilligi mazmuniy jihatdan ham, grammatik

¹¹ Abdurahmonov G'.A. O'zbek tili grammatikasi. Toshkent, 1996, 164-bet

¹² G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis, -Toshkent, 1987 163-bet

jihatdan ham seziladi. Zotan, bunday sintaktik qurilma komponentlarining har ikkisi ham alohida ahamiyatga molik bo'lgan mustaqil tub strukturalarga tayanadi. Bu esa, o'z navbatida, ularning nafaqat grammatik jihatdan, balki semantik nuqtai nazardan ham nisbiy mustaqil ekanligidan dalolat beradi. Chunki tub struktura – bu ichki semantik struktura demakdir.

Yuqoridagilardan tashqari, M.Asqarovaning bog'langan qo'shma gaplarda birinchi komponent erkin tuzilishi, ikkinchi komponent esa bog'langan qo'shma gap komponentlari orasidagi munosabatga bog'liq holda qurilishi xususidagi mulohazalari ham e'tiborga molikdir.¹³ Xususan, bo'lsa, esa so'zlari ishtirokida tuzilgan ikkinchi komponent buning dalili bo'lishi mumkin.

M.Asqarova bog'lovchi vositalarsiz shakllangan qo'shma gaplar komponentlari o'zaro bog'lovchilar va grammatik formalarsiz, faqat intonatsiya bilan sintaktik butunlik hosil qilishini eslatadi. Qo'shma gapning bu turi M. Asqarova fikriga ko'ra, tuzilishi jihatidan ba'zan bog'langan qo'shma gapga, ba'zan esa ergash gapli qo'shma gapga o'xshaydi.

G'.Abdurahmonov, A.Sulaymonov, X.Xoliyorov, J.Omonturdiyevlarning “Hozirgi o'zbek adabiy tili” qo'llanmasida bog'langan qo'shma gapning asosiy grammatik belgisi teng bog'lovchilar ekanligiga alohida urg'u beriladi va qo'shma gapdan farqli ravishda, ayirish mazmuniy munosabatining keng qo'llanishi, sabab va natija mazmuni munosabatini ifodalovchi qurilmalarning mustaqilligi va har bir semantik munosabat ichida o'ziga xos mazmun ifodalarining mavjud bo'lishi qayd etiladi¹⁴.

B. O'rinboyev tadqiqotlarida ham bog'langan qo'shma gaplarda sodda gaplarni o'zaro biriktirish uchun teng bog'lovchilar qo'llanishi ta'kidlanadi va bunda birinchi gap, odatda, erkin holda tuzilgan bo'lishi eslatiladi.

N. Turniyozov “Bog'langan qo'shma gap” va “bog'lovchisiz qo'shma gap” terminlarining qo'llanishi madsadga nomuvofiq ekanligi qayd etadi. Chunki qo'shma gapning har qanday turi komponentlari ham o'zaro qandaydir vosita

¹³ G'ulomov. A, Asqarova M. Ko'rsatilgan darslik

¹⁴ Abdurahmonov G', Sulaymonov A, Xoliyorov X, Omonturdiyev J. Hozirgi o'zbek adabiy tili, Sintaksis. Toshkent 1979, 123-bet

orqali bog'langan bo'ladi. Shu bois N. Turniyozov "bog'lovchili bog'langan qo'shma gap" va "bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap" terminlaridan foydalanish ma'qul ekanligini aytadi. Bundan tashqari, N. Turniyozov bog'lovchili va bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplar tarkibiy qismlarning teng huquqli ekanligi birinchi navbatda ularning tub strukturalari qo'shma gapning tashkil etilishida alohida ahamiyatga egaligi bilan izohlanishini ko'rsatadi, zero, bunday gaplar komponentlarining har biri mustaqil (alohida) tub strukturaga tayanadi. Ergash gapli qo'shma gaplarning esa semantik strukturasi ham, sintaktik shakli ham, asosan, hokim gapning tub strukturasi asoslanadi. Chunki ergash gap o'zi uchun emas, balki hokim mavqega ega bo'lgan ikkinchi bir gap uchun xizmat qiladi.

1.2 O'zbek tilshunosligida havola bo'lakli gaplarning o'rganilishi.

O'zbek tilshunosligida, umuman olganda, turkiyshunoslikda, hattoki boshqa tilshunosliklarda ham, ayniqsa ergash gapli qo'shma gaplar haqida bahslar ko'pdan davom etib keladi. Zero, ergash gapli qo'shma gaplar bog'langan qo'shma gaplarga qaraganda uzvlari o'rtasidagi mazmuniy-tarkibiy munosabatlar tabiatiga, bu munosabatni yuzaga keltiruvchi mazmuniy, mantiqiy va sintaktik mexanizmlarning ancha murakkabligiga ko'ra farq qiladi. Shuning uchun ham ergash gapli qo'shma gaplarni baholashda jiddiy muammolar anchagina. Bu ayniqsa, tarkibida sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi va boshqa tizimlari mavjud bo'lgan sintaktik birliklarni baholashda ko'proq ko'zga tashlanadi. Ana shunday gaplarning sintaktik maqomini belgilashda, ya'ni bunday gaplar sintaktik sodda gapmi yoki ergash gapli qo'shma gapmi, degan masaladagi munozara hali tingan emas.

O'zbek tilidagi ergash gapli qo'shma gaplarni o'rganishda G'. Abdurahmonov, M.A. Asqarova, A. Berdialiyevlarning ilmiy tadqiqotlari diqqatga sazovordir. G'. Abdurahmonov va M.A. Asqarovalarning tadqiqotlarida o'zbek tilidagi ergash gaplar, asosan, shakl jihatdan o'rganilgan. Masalan, M.A. Asqarovaning doktorlik dissertatsiyasi "Hozirgi o'zbek tilida ergashish

usullari va ergash gap tiplari”, deb nomlangan bo‘lib, uning birinchi bobi ergashish usullari va shakllarini tadqiq etishga bag‘ishlangan¹⁵, keyingi uch bobda ham ergashgan qo‘shma gap uzvlarining bog‘lanishida ishtirok etuvchi lisoniy vositalar tahlili asosiy o‘rinda turadi. Hatto ergash gaplarning mazmuniy-sintaktik tiplari haqida gap ketganda ham, mazmuniyat bilan bog‘liq qisqa izohlardan keyin, yana baribir bog‘lovchi vositalar, qo‘shma gap uzvlarining o‘rinlashuvi kabi masalalarga ko‘proq e‘tibor qilingan. G‘. Abdurahmonov tadqiqotlarida ham qo‘shma gaplarga ana shunday yondashuvni ko‘rish mumkin.

Har qanday til birligi kabi gap ham, xususan, qo‘shma gap ham ikki tomonlama birlikdir, ya‘ni ifoda tomoni va mazmun tomoniga ega. Uzoq vaqtlar mobaynida qo‘shma gapning asosan ifoda va qisman mazmun tomonlari o‘rganildi. Keyingi yillarda tilshunoslikda gapning mazmun tomoniga, “semantika” deb yuritiladigan jihatga e‘tibor kuchaydi, mazmuniy (semantik) sintaksis, degan yo‘nalish yuzaga keldi. A. Berdialiyevning tadqiqotlari ana shu yo‘nalishdagi o‘zbek tilshunosligidagi dastlabki ishlardandir. Uning doktorlik dissertatsiyasida ergash gapli qo‘shma gaplardagi paradigmatic va sintagmatic xususiyatlar chuqur tadqiq etilgan. Ergashgan qo‘shma gaplarning mazmuniy-signifikativ xususiyatlari, ulardagi sintaktik omonimiya, polisemiya, ko‘p funkcionallik kabi bir qator muhim masalalar ishonarli tarzda hal qilingan. Shubhasiz, bu ish o‘zbek tilshunosligidagi qo‘shma gap nazariyasiga qo‘shilgan muhim xissadir. Lekin ishning kirish qismida alohida ta‘kidlanganiday, tadqiqotdagi asosiy metod tarkibiy-mazmuniy (mazmuniy-tarkibiy emas) bo‘lib, u “shakldan mazmunga” qabilidagi tahlilga asoslangan¹⁶.

Havola bo‘lak deganda umumiy tilshunoslikdagi “deyxis belgilar” tushuniladi. Deyxis belgilarning mohiyati shundan iboratki, ular mazmunni, voqea, belgi, narsalarni bevosita ifodalamaydi, balki ularga ishora, havola qiladi, shunga ko‘ra ularni mazmunan kuchsiz, bo‘sh so‘zlar sifatida qarash mumkin.

8 Abdurahmonov G‘.A “Qo‘shma gap sintaksisi asoslari” Toshkent: O‘zFA nashriyoti, 1958. Asqarova M.A. Hozirgi zamon o‘zbek tilida qo‘shma gaplar. Toshkent: O‘zFA nashriyoti, 1960

¹⁶ Berdialiyev A. Ergash gapli qo‘shma gap konstruksiyalarda semantic-signifikativ paradigmatica. Toshkent, 1989

O'zbek tilidagi olmosh va boshqa nisbiy so'zlar ana shunday deysis belgilar bo'lib, ular qo'shma gaplarda havola bo'laklar sifatida ishtirok etishi mumkin.

Havola bo'lakning mavjud yoki mavjud emasligi bilan bog'liq holatda bosh gap ham, ergash gap ham muayyan mazmuniy va sintaktik xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Quyidagi gaplarni qiyoslaylik: Tolib aka shuni bilib qo'ysinki, Akrom Saidning ham ocherki jurnalda chiqmaydi (F. Musajonov). Onasi kiyinib chiqquncha, ota-bola toychoqni yaltiratib artib qo'yishardi (A. Ko'chimov). Birinchi gapning bosh qismida *shuni* havola bo'lagi bor, u to'ldiruvchi vazifasida, ikkinchi gapda **ota-bola toychoqni yaltiratib artib qo'yishardi** shaklidagi bosh gap havola bo'lak yo'q. Avvalo, havola bo'lakning tabiatiga ko'ra ayni bosh gapdagi to'ldiruvchi sintaktik o'rni faqat shaklan berkitilgan, chunki havola bo'lak mazmunan bo'sh, shuning uchun bosh gap sintaktik to'liq bo'lsa ham, mazmunan noto'liq. Ikkinchi gapdagi bosh gap esa mazmunan, ham sintaktik jihatdan to'liq. Birinchi bosh gap mazkur havola bo'lakning keyingi ergash gapga havola qilishiga ko'ra mazmunan to'liq bo'ladi, ergash gap bosh gap predikatining kuchli sintagmatik valentligini berkituvchi to'ldiruvchi o'rniga qo'yilib idrok qilinadi. Ikkinchi gapda esa ergash gapning o'rni bosh gap tarkibiy qurilishining bevosita ichida. Birinchi gapda ergash gap bosh gapning sintaktik o'rinlar tizimidan tashqarida bo'lib, u bu tizimga muayyan mantiqiy-mazmuniy harakatlar orqali kirilsa, ikkinchi gapda bunday harakatlarga zaruriyat yo'q, chunki u ayni tizimning uzviy a'zosi. Ikkinchi gapdagi ergash gap bosh gap predikatining kuchsiz sintagmatik valentligini berkituvchi sintaktik o'rinni egallagan, shuning uchun ergash gap ishtirok etmaganda ham, bosh gap mazmuniy-sintaktik ma'nosini yo'qotmaydi. Aytilgan mulohazalarga ko'ra yana bir narsani ta'kidlash lozim.

Havola bo'lakli bosh gaplar sinsemantik, ya'ni ergash gaplardan ajratib olinganda, mustaqil qo'llana olmaydi, mazmunan chala bo'lib qoladi. Havola bo'laksiz bosh gaplar esa avtosemantik, ya'ni ergash gaplardan ajratib olinganda ham mazmunan nisbiy mustaqilligini saqlay oladi, mazmunan chala, noto'liq bo'lib qolmaydi.

Ergash gapli qo'shma gaplarning ayrimlarida bosh gapdagi havola bo'lakning o'zi bilan chegaralanmaydi. Bu havola bo'lak bilan muvofiq keluvchi boshqa bir havola bo'lak ergash gap tarkibida ham mavjud bo'ladi. Bosh va ergash gaplardagi bu havola bo'laklar savol-javob tarzidagi doimiy qarshilantirishni tashkil etadi: *kim – u, kim – o'sha, kimlar – ular, nima – shu, nima – u, qancha – shuncha, qanday – shunday, nechta – shuncha, qanchalik – shunchalik, qayer – shu yer, qay tomon – shu tomon* kabi. Ana shu havola bo'laklardagi qarshilantirishga ko'ra bosh va ergash gaplar o'rtasidagi aloqa tabiatida ham o'ziga xoslik yuzaga keladi. Masalan: *Kim mehnat qilsa, u rohat ko'radi* (“Mashriqzamin – hikmat bo'stoni” kitobidan). *Qayerda intizom bo'lsa, u yerda muvaffaqiyat bo'ladi.* (“Tafakkur gulshani” jurnalidan). Bu gaplardagi tobelik aloqasi boshqa ergash gapli qo'shma gaplardagidan farqli o'laroq, ikki tomonlamadir, ya'ni “aloqa yo'nalishi ergash gaplardan bosh gaplarga, ayni vaqtda bosh gaplardan ergash gaplar tomon harakat qiladi”¹⁷. Tobe aloqaning o'ziga xos bu turi turli tilshunoslar tomonidan turlicha nomlangan. Ular orasida dastlab А.М.Пешковский tomonidan tavsiya etilgan “Взаимное подчинение”, ya'ni “O'zaro tobelanish” atamasi¹⁸ hodisa mohiyatini aniq aks ettiradi.

O'zaro tobelanishli ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gap oldin, bosh gap esa keyin keladi. Ergash gap tarkibidagi havola bo'lak umumlashgan so'roq ma'nosida (*kim, nima, qancha, qanday, qayer* kabi), bosh tarkibidagi havola bo'lak esa shu so'roqqa umumiy javob ma'nosida (*u, o'sha, shuncha, shunday, o'sha yer* kabi) bo'ladi¹⁹. Bunday ergash gapning predikati shart ergash gapning predikati kabi shart maylidagi fe'l (yoki ba'zan shart ma'nosiga ega bo'lgan boshqa fe'l: masalan *-r ekan*) orqali ifodalangan bo'ladi, lekin undagi shart ma'nosi kuchsizlangan bo'lib, bu shakl mazkur havola bo'laklar bilan birgalikda bosh va ergash gaplarni bog'lovchi vosita vazifasini bajaradi. Ayni havola bo'laklar shart ma'nosini xiralashtiradi, shuning uchun ham o'zaro tobelanishli, demak, har ikki qismida ham havola bo'laklar mavjud bo'lgan ergash gapli qo'shma gaplar sirasida

¹⁷ Berdialiyev A. Kordinativ aloqa va uning xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 1984, 21-bet

¹⁸ Пешковский А. М. Русский синтаксис в научном освещении. 1956.

¹⁹ Asqarova M.A Hozirgi zamon o'zbek tilida qo'shma gaplar. Toshkent: O'qituvchi 1987, 53-bet

shart ergash gapli qo'shma gaplar yo'q. Agar imkon bor o'rinlarda havola bo'laklar tushirib qoldirilsa, gapdagi shart mazmuni yaqqol yuzaga chiqadi va gap shart ergash gapli qo'shma gapga aylanadi. Masalan: *Kim mehnat ko'rsa, u rohat ko'radi* (ega ergash gap). – *Mehnat qilsang, rohat ko'rasan* (shart ergash gap). *Qayerda intizom bo'lsa, u yerda muvaffaqiyat bo'ladi* (o'rin ergash gap). – *Intizom bo'lsa, muvaffaqiyat bo'ladi* (shart ergash gap).

Ammo ta'kidlash lozimki, havola bo'lak faqat bosh gapdagina mavjud bo'lganda havola bo'lakning tushirib qoldirilishi ergash gap turning o'zgarishiga olib kelmaydi. Qiyoslang: *Tolib aka shuni bilib qo'ysinki, Akrom Saidning ham ocherki jurnalda chiqmaydi*. Har ikki holatda ham to'ldiruvchi ergash gap mavjud.

Ikkinchi holatdagi, ya'ni bosh gapdagi havola bo'lagi tushib qolgan gaplarni ham havola bo'lakli bosh gap sifatida qarash maqsadga muvofiq, chunki havola bo'lak bunday hollarda qo'llanmaganda ham uning sintaktik o'rni ochiq ekanligi aniq sezilib turadi. Odatda bosh gapdagi havola bo'lakning tushib qolishi, asosan, ega va to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarda kuzatiladi. Gapdagi predikat ifodasining kuchli sintagmatik valentliklari ko'pincha ana shu bo'laklar – ega va to'ldiruvchi bilan berkiladi. Ana shuning uchun ham bosh gapdagi ega va to'ldiruvchi vazifasida kelgan havola bo'laklar qo'llanmaganida ham baribir, uning borligi anglanadi, istagan paytda uni tiklash mumkin.

2-BOB

TARIXIY MANBALARDA HAVOLA BO‘LAKLARNING QO‘LLANISHI VA ULARNING TASNIFI

2.1. Tarixiy manbalar tilida havola bo‘lakli qo‘shma gaplarning qo‘llanishi.

Tarixiy manbalar tilining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular o‘zida turli gap konstruksiyalarini, sodda gap-monopredikativ konstruksiyalarni namoyon qiladi. *Fosr mashoyixi bilan suhbat tutib erdi* tipidagi gaplar bir bosh bo‘lakli sodda gaplarning shaxsi aniq gap turiga kiradi. Mazkur gapda suhbat tutmoq predikati o‘ziga aloqador aktantlar munosabatidan tashkil topgan sintaktik qurilma sanalib, bir predikativ ifodadan iborat. Predikat o‘zida mayl, zamon, shaxs-son kabi predikativlik belgilarini mujassam etgan. Ushbu gapda ega ifodalanmagan bo‘lsa-da, u gap predikati kesimdan anglashilib turadi. Shuning uchun ham A.Nurmonov bu tipdagi (nominallashtirilgan) predikatlarni “o‘zida aks ettiruvchi har qanday predikatning o‘zi eng kichik gap sanaladi”²⁰, deydi. Demak, gapning semantik va grammatik asosi predikativlik bo‘lib, uni tashuvchi asosiy element kesimidir.

H.G’. Ne‘matov ham “zamon, modallik, shaxs-son kategoriyalari, umuman olganda, fe’lning morfologik kategoriyasi sifatida emas, balki, kesimlik kategoriyasi sifatida yuzaga chiqadi va ushbu kategoriyalar mazmunini kesim pozitsiyasida keluvchi barcha so‘z shakllarida o‘zining ifodasini topadi”, - deydi.

Eski o‘zbek tilida havola bo‘lakli qo‘shma gap va ularning turlari, shakllari xilma-xil. Ularning ayrimlari hozirgi o‘zbek tilidagi kabi ayrim bo‘laklari ko‘zga tashlanib tursa, ayrimlari yashirin yoki yondosh kelgan turlariga o‘xshamay qolishi mumkin.

X-XII manbalarida havola bo‘lakli qo‘shma gaplarning qo‘llanishi.

Ma’lumki, o‘zbek tili turkiy tilning tarixiy taraqqiyot etgan bir shakli sanaladi. O‘zbek tilining tarixiy taraqqiyoti masalalarini belgilashda XI asr oxiri va

²⁰ Nurmonov A., Mahmudov N. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent, O‘qituvchi, 2007. 44-45 bet

XIX asrning II yarmigacha bo'lgan eski o'zbek tili deb ataluvchi davrning tili ahamiyatli ekanligi e'tirof etiladi. Jumladan, buyuk shoir va mutafakkir Yusuf Xos Hojibning adabiy merosi bo'lgan "Qutadg'u bilig" asari O'rta Osiyo Turkiy xalqlarining madaniy-ma'naviy hayotida muhim o'rin egallagan. U chinakam vatanparvar shoir, qomusiy olim sifatida xalq tilining bitmas-tuganmas manbalaridan foydalanish uning boyligi va nafisligini namoyon etish bilan faqat o'z zamondoshlariga emas, balki undan keyingi butun avlodlarga ham o'rnak ko'rsatdi. Yusuf Xos Hojib yaratgan asarlarida o'zbek tilining boy xazinasidan foydalanish bilan birga, o'z asarlarida an'anaga muvofiq boshqa tizimdagi tillarning ilmiylarini qo'llaydi²¹. Tillarning qadimgi davrlarida yuzaga kelgan o'ziga xos davriy yangiliklari o'sha davriy yangiliklari, o'sha davr yozma yodgorliklarida saqlanib qolganligidir.

Hozirgi o'zbek adabiy tili faqat bugungi kunning mahsuli emas, balki ma'lum bir tarixiy bosqichda yuzaga kelgan boshlang'ich sodda tilning o'zgargan, takomillashgan holidir. Bugungi kungacha u turli fonetik, leksik, morfologik, sintaktik va boshqa mantiqiy o'zgarishlarga uchraganligi aniq. Ana shu o'zgarish va taraqqiyot yo'llarini va uning ahvoli qanday bo'lganligini, u vaqtdan boshlab tilda qanday o'zgarishlar bo'lib o'tganligini "Qutadg'u bilig" asarini tadqiq qilish natijasida aniqlash mumkin. B. Abdurahmonova "Qutadg'u bilig" asari haqida quyidagi fikrlarni aytadi: " "Qutadg'u bilig"ni ko'rgan ko'plab olimlarning ta'kidlashicha ko'ra: u turkiy yozma adabiyotning rivojlanishida o'ziga xos bosqich bo'lib, qadimgi adabiy an'analarning yakunlanib, yangi bir tarixiy davr asosidagi adabiy an'analarning boshlang'ich nuqtasida paydo bo'lgan. Shunga ko'ra ularning barchasi to'laligicha, yaxlit holda emas, balki tanlab, saralab olingan holda taqdim etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi"²².

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida havola bo'lakning asosan ikki havola bo'lakli turini ko'plab uchratishimiz mumkin. Masalan:

Bayat kimka bersa bu beglik ishi,

²¹ Abdurahmonov G., Shukurov Sh., O'zbek tilining tarixiy grammatikasi – Toshkent: O'qituvchi, 1973.26-bet

²² Abdurahmonova B. "Qutadg'u bilig" asari ustida ishlash. Toshkent, 2013. 36-bet

Berur o'g ko'ngul ko'r ul ishka tushi. (Qutadg'u bilig 118-bet)

(Xudo kimniki beklikka loyiq ko'rsa, unga bu ish uchun idrok va ko'ngil ham beradi). Mazkur gap ikki havola bo'lakli to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap hisoblanadi. Ushbu gapda ergash gap (Xudo kimniki beklikka loyiq ko'rsa) bosh gapdan (unga bu ish uchun idrok va ko'ngil ham beradi) oldin kelgan. Ergash gapda – **kimki** olmoshi havola bo'lak vazifasida kelgan, bosh gapda **unga** olmoshi qo'llanib, vositali to'ldiruvchi vazifasida kelgan.

Qayu begda bo'lsa bu arquq qilinch,

Ishi – barcha tetru, sevinchi – saqinch. (Qutadg'u bilig 34-bet)

(Qaysi bek yomon qiliqli bo'lsa, Barcha ishi ters bo'lib, sevinchlari qayg'uga aylanadi). Ushbu gap ikki havola bo'lakli aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap hisoblanadi. Mazkur gapda ergash gap tarkibida **qaysi** olmoshining arxivarianti “**qayu**” olmoshi qo'llanib, havola bo'lak bo'lib kelgan, bosh gapda “**o'shaning**” olmoshi gapda qo'llanilmagan bo'lsada, lekin uning o'zni sezilib turadi.

...Qayu elka bo'lsa bu yanglig' begi

Qutuldi ul el budni ketti igi. (Qutadg'u bilig 124-bet)

(Qaysi elning begi shu yanglig' bo'lsa, O'sha el barcha xavfdan xalos bo'ladi). Ushbu gap ikki havola bo'lakli ega ergash gapli sanalib, ergash gapda qaysi olmoshining arxivarianti – **qayu** olmoshi, bosh gapda esa o'sha olmoshining arxivarianti – **ul** olmoshi qo'llanilib, gapda ega vazifasida kelgan.

Kishilik qilurqa kishilik anut,

Kishilik tengincha tora qil yanut. (Qutadg'u bilig 46-bet)

(Kim odamgarchilik qilsa, sen unga yaxshilik bilan javob qaytar). Mazkur gapdagi ergash gap tarkibida **kim** havola bo'lagi qo'llanilgan hamda vositali to'ldiruvchi vazifasida kelgan. Mazkur qo'shma gapning har ikkala qismida ham havola bo'lak mavjudligi sababli, havola bo'lak real, lekin **kim** – **unga** havola bo'laklari bir-biriga teng emasliklari sababli, ular o'zaro assimetrik hisoblanadi. Demak, ushbu gap ikki havola bo'lakli to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.

Aziz ul, aziz ul, azizlarqa iz.

Aningdin tegir iz, aziz emdi oz. (Qutadg'u bilig 38-bet)

(Aziz narsa shulki, azizga e'zoz o'shandan buyurgay, aziz o'zi oz).

Ushbu gapda **shulki** olmoshi bosh gap tarkibida havola bo'lak vazifasida kelgan. Ushbu havola bo'lak **shuki** olmoshining arxivarianti hisoblanadi. Xullas, mazkur gap bir havola bo'lakli kesim ergash gapli qo'shma gap.

Nosiruddin Rabg'uziyning "Qissai Rabg'uziy" asarida havola bo'lakli qo'shma gaplar.

Kim o'z qarindoshini meros umidiga o'ltursa, ul merosdin mahrum qolur.
(Qissai Rabg'uziy 2-jild 19-bet)

(Kimki o'z qarindoshini meros uchun o'ldirsa, u merosdan mahrum qoladi). Mazkur gapning ergash gap qismida **kimki** havola bo'lagi, bosh gap qismida esa **u** havola bo'lagi qo'llanilgan va ega vazifasida kelgan. **Kimki – u** havola bo'laklari ergashgan qo'shma gapning har ikkala qismida qo'llanganligi hamda o'zaro bir-biriga mosligi sababli, ular real va simmetrikdir. Mazkur qo'shma gap ikki havola bo'lakli ega ergash gapli qo'shma gap hisoblanadi.

Har kim bu kun Jolut birla sanchishsa yarim mulkumni, qizimni anga berayin. (Qissasi Rabg'uziy 2-jild 26-bet)

(Kimki bu kun Jolut bilan urushsa, unga mulkimning yarmini, qizimni beraman). Ushbu gapda ergash gap tarkibida **kimki** havola bo'lagining arxivarianti **kim** olmoshi, bosh gap tarkibida esa **unga** havola bo'lagining arxivarianti **anga** olmoshi qo'llanilgan. Ushbu gap tarkibida havola bo'laklar real holda qo'llanilgan. Demak, mazkur gap ikki havola bo'lakli to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap turiga misol bo'la oladi.

Mange mulke bergilkim, mandin o'zga kim ersaga bermish bo'lmag'aysen.
(Qissasi Rabg'uziy 2-jild 33-bet).

(Menga shunday mulk bergilki, mendan o'zga hech kimda bo'lmasin). Yuqoridagi gapda **shunday** olmoshi va *-ki* yuklamasi bosh gap tarkibida qo'llanilmagan bo'lsada, havola bo'lakning o'rni sezilib turibdi. Ergash gap esa

bosh gap tarkibidagi havola bo‘lakning mazmunini izohlab kelgan. Ushbu gap bir havola bo‘lakli aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap hisoblanadi.

Har kim Yunusni ursa, emgatsa man ani halok qilurman. (Qissasi Rabg‘uziy 2-jild 28-bet).

(Kimki Yunusni ursa, xo‘rlasa, men uni yo‘q qilaman). Mazkur gap ergash gap (**kimki Yunusni ursa, xo‘rlasa**) va bosh gap (**men uni yo‘q qilaman**) dan iborat. Ergash gap tarkibida **kimki** havola bo‘lagining arxivarianti **kim** olmoshi, bosh gap tarkibida **uni** havola bo‘lagining arxivarianti **ani** olmoshi qo‘llangan bo‘lib, gapda vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida kelgan. Ushbu gapda havola bo‘laklar real va o‘zaro assimetrik. Yuqoridagi gapimiz ikki havola bo‘lakli to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap turiga misol bo‘la oladi.

Shunisi ma‘lum bo‘ldikim, namoz qilg‘andin so‘ng mehrobda tilagu kerak va mehrobg‘a boqib turmoq kerak. (Qissasi Rabg‘uziy 2-jild 80-bet).

(Shunisi ma‘lum bo‘ldiki, namoz o‘qigandan so‘ng, mehrobg‘a tilak aytib, boqib turiladi). Mazkur gapning bosh gap tarkibida **shunisi** havola bo‘lagi va **-ki** yuklamasi ishtirok etgan. Ergash gap esa bosh gap tarkibidagi **shunisi** havola bo‘lagining mazmunini izohlab kelgan. Ushbu gapdagi havola bo‘lak real holda qo‘llangan. Demak, ushbu gap bir havola bo‘lakli ega ergash gapli qo‘shma gap sanaladi. *Xizr qayu yerda o‘ltursa, ul yer ko‘karur erdi.* (Qissasi Rabg‘uziy 2-jild 68-bet)

(Xizr qaysi yerda o‘ltirsa, o‘sha yer o‘zgarar edi). Ushbu gapda ergash gap tarkibida **qaysi** havola bo‘lagining arxivarianti **qayu** olmoshi, bosh gap tarkibida **o‘sha** havola bo‘lagining arxivarianti **ul** olmoshi qo‘llangan. Qo‘shma gapning har ikkala qismida ham havola bo‘laklar real holda qo‘llangan hamda ular o‘zaro simmetrik. Demak, ushbu qo‘shma gapimiz ikki havola bo‘lakli o‘rin ergash gapli qo‘shma gap turiga misol bo‘la oladi.

XIII-XIX asr manbalarida havola bo‘lakli qo‘shma gaplarning qo‘llanishi. Hozirgi o‘zbek tilidagi ayrim sintaktik birliklarning tarixiy taraqqiyotini belgilashda eski o‘zbek tilida bitilgan manbalarining o‘rni beqiyos.

Shu nuqtai nazardan mazkur bobni yoritishda biz Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” va “Layli va Majnun” asarlarini tanladik.

Ma'lumki, hozirgi o'zbek tilida havola bo'lakli qo'shma gap deb nomlanadigan gap turlari keng qo'llanadi, ularning hosil bo'lishi usullari va turlari atroflicha o'rganilgan. Eski o'zbek tilida ham qo'shma gapning havola bo'lak ishtirok etgan qo'shma gap turlari talaygina. Ularning ifoda shakllari va mazmuniy munosabatiga ko'ra ikki turi qayd qilinadi, ya'ni bir havola bo'lakli va ikki havola bo'lakli. Bir havola bo'lakli qo'shma gaplar: *Chun Samnun **ani** bildikim, maqsud ul tabibdin odobi ubudiyat va ishori ajizdur, yoqkim hol satri.* (Nasoyim ul-muhabbat 57-bet). Eski o'zbek tilida hozirgi o'zbek tilidagi **shuni** olmoshi o'rnida uning arxaik variant **ani** shakli qo'llanadi. Bosh va ergash gaplar o'zaro *–ki // kim* bog'lovchilari yordamida bog'lanadi. Bu turdagi havola bo'laklarning ishtirokiga ko'ra bir havola bo'lakli to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar sirasiga kiradi.

Havola bo'lak sifatida noaniqlikni ifodalovchi bir so'zi qo'llanishi mumkin. Bunday gaplarda bosh gap tarkibida qo'llangan havola bo'laklarning mazmunini ergash gap to'laligicha aniqlashtirib keladi. Masalan, *Borur erduk, bir qavmni ko'rduki, bozor tomida nard o'ynarlar erdi, Shayx Abu Bakr borib, alar qoshig'a o'turdi va alar bila ilik uyung'a eltti.* (Nasoyim ul-muhabbat 101-bet)

Ikki havola bo'lakli qo'shma gaplar. Havola bo'laklarning ayrimlari hozirgi o'zbek tilidagi kabi ko'zga tashlanib tursa, ayrimlari yashirin tarzda qo'llanishi mumkin.

1. **Kimki** – **anga** shaklidagi to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap: ... **kimki** *ulug'lar bila suhbat tutg'ay va adab tariqin ma'riy tutmag'ay, **anga** alarning suhbatining foydasi va nazarining harakati xaram bo'lg'ay va alarning nuridin anda hech nima paydo bo'lmag'ay.* (Nasoyim ul muhabbat 67-bet)

2. **Har kim** – **ani**, **har kim andin** shaklidagi to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar: ... **har kim** *Haq taoloning g'ayri bila orom tutqay, Haq taolo **ani** aftoda qilg'ay va **har kim** Haq taolo bila orom tutqay, Haq taolo o'zgalari bila orom tutmoq yo'lini **andin** bog'lag'ay va kesgay.* (Nasoyim ul-muhabbat 34-bet)

Havola bo‘laklarning biri belgisiz qo‘llanadi: Masalan, *Har kim aning bila xo‘y qilg‘ay, ko‘ngli rohat bila bo‘lg‘ay, Har kim andin e‘ros qilsa qazo vurudi bila ko‘ngli ranja bo‘lg‘ay.* (Nasoyim ul-muhabbat 36-bet).

Mazkur gaplarning har ikklalasida ham havola bo‘laklar sifatida **kim** qo‘llangan bo‘lsa, bosh gap tarkibidagi havola bo‘lak esa noreal qo‘llangan. Bosh gap tarkibidagi belgisiz qo‘llangan **uning** olmoshining sintaktik vaziyatiga ko‘ra mazkur qo‘shma gaplar aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gaplardir. Masalan: *Dedi: tengri taolo senga besh xil‘at kiydirib durur: muhabbat xil‘ati va ma‘rifat xil‘ati va tavhid xil‘ati va iymon xil‘ati va islom xil‘ati. Har kim tengrini sevsa, anga oson bo‘lg‘ay har ish. Va har kim tengrini tanisa, ko‘ziga kichik ko‘ringay har nima. Va har kim tengriga birlik bila bilsa, anga sherik kelturmagay hech nimani. Va har kim tengriga iymon keltursa, emin bo‘lg‘ay, barcha nimadin. Va agar osiy bo‘lsa, e‘tiroz qilg‘ay. Va chun e‘tiroz qilg‘ay, qabul tushg‘ay.* (Nasoyim ul-muhabbat 38-bet)

Mazkur mikromatnda (ko‘chirma gapli qo‘shma gapda) mazmunan bir-biri bilan zich aloqada bo‘lgan 7 ta ergash gapli qo‘shma gap mavjud bo‘lib, ulardan beshtasi havola bo‘lakli qo‘shma gapdir. Har bir havola bo‘lakli qo‘shma gapning ergash gap qismida havola bo‘lak sifatida **har kim** belgilash olmoshi qo‘llangan.

Birinchi gapda **har kim** – **anga** havola bo‘laklari mavjud, shunga ko‘ra bu to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap, keyingi gapda esa havola bo‘lak har kim faqat ergash gap qismida qo‘llanib, bosh gap tarkibida havola bo‘lak shaklan qo‘llanmagan bo‘lsada, uning mazmunan bo‘sh o‘rni ma‘lum, bosh gap kesimining valentligiga ko‘ra anga olmoshini talab qiladi. Shunga ko‘ra bu ham to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap. Uchinchi gapda esa **har kim** – **anga** havola bo‘laklarning grammatik shakliga ko‘ra to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap sirasiga kiradi. Navbatdagi to‘rtinchi gapda esa bosh gap tarkibidagi havola bo‘lak – **anga** so‘zining o‘rni kesimlik shakllaridan ma‘lum, demak, to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap. Beshinchi gapda ham ergash gap tarkibida har kim olmoshi qo‘llangan bo‘lsada, bosh gap qismida havola bo‘lakning o‘rni ma‘lum, u “**u**” olmoshidir. Demak, bu gap ega ergash gapli qo‘shma gap. Oltinchi va yettinchi

gaplar esa shart ergash gapli qo'shma gaplardir. Bu gaplarda havola bo'lak o'rnida ergash gap kesimi orqali ifodalanayotgan shart ma'nosini kuchaytiruvchi **agar va chun** vositalari qo'llangan. Yuqoridagi misollarda havola bo'lak ishtirok qilgani uchun ergash gap kesimida anglashiladigan shart ma'nosi xiralashgan. **Agar, chun** so'zlari o'rnida **har kim, kimki** havola bo'laklari qo'llanganda edi, ularni havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gap sifatida baholash mumkin bo'lar edi.

Alisher Navoiyning nasrida murakkab qo'shma gaplarning shunday turlari uchraydiki, ularning tarkibida birdan ortiq havola bo'laklar ishtirok qiladi va ergash gapli qo'shma gaplarning turlarini hosil qiladi. Bu tarzda shakllangan murakkab gap turlari hozirgi o'zbek tilida deyarli uchramaydi va eski o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlaridan sanaladi. Masalan: *(Vazir) ...dedi, qo'ying bizga maqsud ul erdiki, xalq bilgaylarki, bizning mulkda andoq kishi borkim, sharqdir g'arbgacha mulk qazosin anga bersalar, ul qabul qilmasa ermish.* (Nasoyim ul-muhabbat 118-bet)

Birinchi jumla kesim ergash gapli qo'shma gap bo'lib, kesimi **ul erdi** – bir havola bo'lakli qo'shma gap. Ikkinchi jumlada esa to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapning bosh qismi sanaladi. Gapda belgisiz qo'llangan **ani** vositasiz to'ldiruvchining sintaktik-semantik o'rni sharoit yaratib turibdi – bir havola bo'lakli qo'shma gap. Uchinchi jumla esa aniqlovchi g'arbgacha bo'lgan mulkni berishganlarida uni qabul qilmaydigan kishi – bir havola bo'lakli qo'shma gap²³.

Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonidagi havola bo'lakli qo'shma gaplar

Ey kimniki aylabon parivash

Majnun anga yuz asiri g'amkash. (Layli va Majnun 80-bet)

(Kimni sen pariga Majnun qilgan bo'lsang, ko'z yoshlarini jigarrang qilib oqizding). Mazkur gapda birinchi misrada **kimniki** olmoshi qo'llangan va ushbu olmosh asarning nasriy bayonida **kimni** olmoshiga to'g'ri keladi. Ikkinchi misrada **anga** olmoshi qo'llangan. Ushbu olmosh hozirgi kundagi **unga** havola

²³ Rahmatov M. Eski o'zbek tilida havola bo'lakli qo'shma gaplar. O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Toshkent, 2011, 71-71 bet

bo‘lagining arxivarianti hisoblanadi. Ushbu baytda *kimni va unga* havola bo‘laklari qo‘llanilgan bo‘lib, havola bo‘laklar real, lekin assimetrik havola bo‘laklar hisoblanadi. Demak, mazkur gap ikki havola bo‘lakli to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap hisoblanadi.

Yo Rab, eshigingda ul gadomen

Kim, boshtin-ayoqqacha xatomen. (Layli va Majnun 30-bet)

(Men eshigingda shunday bir gadomanki, boshdin-oyoqqacha turgan-bitganim xatodir). Yuqoridagi jumlada (**shunday**) havola bo‘lagi o‘rnida (**ul**) ko‘rsatish olmoshi qo‘llangan, **-ki** yuklamasi o‘rnida esa **-kim** olmoshi ishtirok etgan. Demak, ushbu gap bir havola bo‘lakli aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap hisoblanadi.

Holim sharhiki bas uzundir,

Bu turfaki, dam-badam fuzundur. (Layli va Majnun 110-bet)

(Holim sharhu izohi o‘ta uzun bo‘lib, qizig‘i shundaki, dam badam bu uzayib bormoqda). Ushbu gapda (**shundaki**) olmoshi ishtirok etgan bo‘lib, bir havola bo‘lakli kesim ergash gapni hosil qilgan.

Har necha emas manga bu oson,

Lekin sanga bordur asru oson. (Layli va Majnun 88-bet)

(Bu menga qanchalik mushkul bo‘lsa, senga shunchalik osondir). Ushbu gapning ergash gap qismida qanchalik olmoshi ishtirok etgan bo‘lib, unga monand ikkinchi qismda, ya‘ni bosh gap qismida shunchalik olmoshi ishtirok etgan. Yuqoridagi **qanchalik – shunchalik** havola bo‘laklari ikki havola bo‘lakli o‘lchov – daraja ergash gapli qo‘shma gapni hosil qilgan. Ushbu gapda havola bo‘laklar qo‘shma gapning har ikkala qismida qo‘llanganligi uchun havola bo‘laklar realdir. Bosh gapdagi havola bo‘lak ergash gapdagi havola bo‘lakga teng kelganligi sababli, havola bo‘laklar o‘zaro simmetrikdir.

Ey po ‘yada markabingg‘a ta ‘jil

Ollingda haqir payki Jibril. (Layli va Majnun 127-bet)

(Sening uloving yugurdaklikda shu darajadaki, oldingda elchi Jabroil ham nochor bo‘lib qoladi). Yuqoridagi gapda **shu** olmoshi va bosh gap kesimi

tarkibidagi *-ki* yuklamasi qoʻllanilgan boʻlib, ushbu gap bir havola boʻlakli oʻlchov-daraja ergash gapli qoʻshma gap sanaladi.

Fahm ettiki jilva qilmish oyin,

Shodurvoni jalolu tamkin (Layli va Majnun 134-bet)

(Fahm ettiki, buyuklik va ulugʻvorlik chodiri ostida maqsad jilvalanmoqda). Mazkur gapda hech qanday havola boʻlak qoʻllanilmagan boʻlsada, lekin gapning mazmunidan havola mavjudligi sezilib. Havola boʻlak noreal qoʻllanilgan. Yaʼniki, ushbu gapda **shuni** havola boʻlagi qoʻllanilgan boʻlib, bu havola boʻlak bir havola boʻlakli toʻldiruvchi ergash gapli qoʻshma gapni tashkil qilgan.

Kimki boʻlub demakka mayli,

Malfuz oʻlmay bagʻayri u Layli (Layli va Majnun 98-bet)

(Kimki uning ismini aytishni istasa, u Laylidan boshqa soʻzni tilga olmas edi). Mazkur qoʻshma gap ergash + bosh gap tarzida tuzilgan. Ergash gap tarkibida **kimki** havola boʻlagi va bosh gap tarkibida esa **u** olmoshi havola boʻlak boʻlib kelgan. Ushbu gapda havola boʻlaklar qoʻshma gapning har ikkala qismida ham mavjud boʻlib, ular oʻzaro bir-biriga teng boʻlib, simmetrikdir. Havola boʻlaklarning qoʻllanilishiga koʻra real. Demak, mazkur gap ikki havola boʻlakli ega ergash gapli qoʻshma gap sanaladi.

Gar aylabon oni bu munojot

Atrofida lol ahli hojot. (Layli va Majnun 68-bet)

(Bu munojot uni shunday qizitib yubordiki, atrofdagi hojat ahllari hayron boʻlib qoldilar). Mazkur gapda bosh gap tarkibida **shunday** olmoshi va *-ki* yuklamasi ishtirok etgan. Ergash gap esa bosh gapning natijasini ifodalab kelyapti. Ushbu gapda havola boʻlak qoʻllanilganligi sababli, havola boʻlak realdir. Demak, ushbu gap bir havola boʻlakli natija ergash gapli qoʻshma gap turiga misol boʻla oladi.

2.2. Koʻp komponentli qoʻshma gaplar tarkibida havola boʻlakli gaplar.

Tilshunoslik ilmiga bag'ishlangan asarlarda tilning eng kam o'zgaradigan sohasi sintaksis ekanligi e'tirof qilinadi. Qadimgi va eski turkiy yozma yodgorliklarining til xususiyatli bilan hozirgi zamon adabiy tilini qiyoslar ekanmiz, bir yarim ming yilga yaqin davr ichida tilning sintaktik strukturasi tobora takomillashib, mukammallashib borganini ko'ramiz. Bu takomillanish tilning ichki taraqqiyot qonunlari asosida va boshqa tillarning samarali ta'siri ostida ro'yobga chiqdi. Shunga ko'ra eski o'zbek tili gap qurilishi – sintaksisiga boshqa tillarning ta'siri masalasini o'rganish, ularning to'la izohini, ilmiy bahosini berish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. O'zbek tili tarixiy sintaksisidagi yuzaga kelgan qator noturkiy sintaktik konstruksiyalar yuzaga kelganligi olimlarimiz tomonidan e'tirof etilgan. Bu holat bir qator turkiy tillarning tarixi uchun ham xos bo'lib, ularning sintaktik tuzilishi bilan bog'liq ishlarda bu haqda so'z yuritiladi. Jumladan, tatar tilshunosi F.S.Safiullinaning XX asr tatar tilida rus-tatar ikkitilligi sharoitida bir qator noturkiy sintaktik qurilmalarning yuzaga kelishi haqidagi fikrlarini keltiradi. Biz ushbu maqolada eski o'zbek tiliga fors tilidan kirib o'zlashgan chun bog'lovchi va uning ko'p predikatli gaplarni hosil qilishi, bunday gaplarning boshqa tipdagi gaplar bilan kengayishi – ko'p komponentli qo'shma gaplarni hosil qilishi bilan bog'liq masalalarni tahlil qilishga harakat qilamiz.

Eski o'zbek tilining sintaktik qurilishi hozirgi o'zbek tilining sintaktik qurilishidan ayrim jihatlari bilan farq qiladi. Jumladan, chun bog'lovchili payt, sabab mazmunidagi ergash gaplarning bosh gap qismining kesimidan so'ng –ki/kim bog'lovchilari qo'llanib, yana bir ergash gapning yuzaga kelishiga yo'l ochib beradi. Bu, aksariyat hollarda, bosh gapda qo'llangan yoki qo'llanmagan, mazmunan noto'liq havola bo'laklarning ma'nosini to'ldirish, izohlash, aniqlash munosabatidan iborat bo'ladi. Masalan, *Voqeadin uyg'ondi, kunyatdin anga bu ma'no yuzlandiki, dunyodin iztinob qilmak kerak* (HM 289). Ushbu gapda uch komponent - bir bosh va ikki ergash gap ishtirok qilgan komponentlar o'zaro chun va -ki ergashtiruvchi bog'lovchilari orqali sintaktik aloqaga kirishgan. Chun bog'lovchili ergash komponent payt mazmunini, –ki bog'lovchisi ma'no so'zi

bilan aloqador bo‘lgan aniqlovchi ergash komponentni bog‘lagan. Bosh gap yana o‘z navbatida –ki ergashtiruvchi vositasi orqali *dunyodin ijtinob qilmoq kerak* aniqlovchi ergash gapini ergashtirib kelgan. Yana bir misol: *Chorsug‘a yettim, Shayxni ko‘rdimki, qalin el bila borur erdi* (HM 247). Ushbu gapda bosh gap tarkibida tanqis bo‘lak to‘ldiruvchi, ya’ni havola bo‘lak – Shayx so‘zining belgisini ko‘rsatmoqda. Shunga ko‘ra bosh gapga –ki/kim yordamida bog‘lanayotgan komponentni ham aniqlovchi ergash gap sifatida baholash mumkin.

Bosh gap old pozitsiyadagi chun bog‘lovchili sabab ergash gapni va ort pozitsiyadagi maqsad ergash gapni ergashtirib keladi: *Ostonbo‘sluq ishtiyogi haddin o‘tub erdi, bu vasila bila xayol qildikim, ul oliy maqsadg‘a yetgay* (M 168). Ko‘rinadiki, ushbu gap sintaktik tuzilishi va bog‘lanishiga ko‘ra yuqoridagi gaplardan farq qilmaydi, ammo mazmuniy munosabatlari turlicha. Maqsad ergash gap bosh gapga eksplitsit havola bo‘lakni mazmunan to‘ldirib keladi.

Bosh gap old pozitsiyadagi chun bog‘lovchili payt ergash gapning va ort pozitsiyadagi natija ergash gapni ergashtirib keladi. *Devonai nomurod bu murodni ko‘rdi, nazzorayu tavajjuhi andoq boxudliqqa ulashtikim, gulxan o‘ti boshdin ayog‘iga tushti* (MK, 137). Ushbu gapda bosh gap nazzorayu tavajjuhi andoq boxudliqqa ulashti dastlab chun bog‘lovchili ergash konstruktsiya tomonidan payt munosabatiga ko‘ra izohlanayotgan bo‘lsa, kim bog‘lovchisi yordamida natija ergash gap tomonidan izohlanmoqda. Natija ergash gap bosh gapning mazmunan to‘ldirilishi lozim bo‘lgan havola bo‘lak - andoq so‘zi ma’nosini to‘ldirish amalini bajargan. Quyidagi misollarda ham yuqoridagi kabi munosabatlarni kuzatishimiz mumkin. *Navdarni o‘lturdi, Eron mulkini andoq buzdiki, oz yerda ma‘murluq goldi: yig‘ochlarni kesti va imoratni yiqti va korizlar bila bulog‘larni ko‘mdi* (TMA 203).

Bosh gap old pozitsiyadagi chun bog‘lovchili payt ergash gapni va ort pozitsiyadagi to‘ldiruvchi ergash gapni ergashtirib keladi, boshqacha aytganda, bosh gap tarkibidagi implitsit tanqis bo‘lak – to‘ldiruvchining mazmunan bo‘sh o‘rnini to‘ldiradi: *Турондўхт подшоҳлиг тахтига ором тутти, багоят оқила*

эрди, билдиким, мулк анга ўзгалардек вафо қилмағусидур (252 TMA).
Quyidagi misollarda ham yuqoridagi kabi munosabatlarni kuzatishimiz mumkin:
...chun murshidlar va pirlar komil bo'lsalar, bilurlarki, har murid qaysi maqomg'acha yeta olur (HM 285);

Bosh gap old pozitsiyadagi chun bog'lovchili payt ergash gapni va ortpozitsiyadagi izoh ergash gapni ergashtirib keladi: *Mening oyog'im unini eshittilar, barcha bir yo'li hurkdilar, andoqki, aning vahmidan manga xafaqon paydo bo'ldi (HM 403);*

Bosh gap old pozitsiyadagi chun bog'lovchili payt ergash gapni va ortpozitsiyadagi o'rin ergash gapni ergashtirib keladi: *Yofas Xito mulkida mutamakkin bo'ldi, bu o'g'lonlarig'a har yerniki berdi, ul yerni ul o'g'li oti bila oldilar (TAX 106).*

Misollardan ko'rinib turibdiki, hozirgi o'zbek tilida havola bo'lakli qo'shma gaplar nomidagi gap turlari Alisher Navoiy asarlari tili uchun ham xos bo'lib, to'ldiruvchi, aniqlovchi va natija munosabatli gaplarni hosil qilishda qatnashadi.

III BOB

HAVOLA BO‘LAKLI QO‘SHMA GAPLARNING SINTAKTIK- SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Ergash gapli qo‘shma gaplar qismlari tobe bog‘lovchilar yoki shu vazifadagi vositalar yordami bila o‘zaro birikkan qo‘shma gaplardir. Mazmun tomonidan esa, bu xil qo‘shma gaplar qismlarining biri ikkinchisiga tobe bo‘ladi, shuning uchun ham bu qismlarning biri bosh gap, ikkinchisi tobe gap sanaladi.

Bosh va ergash gap Grammatik va mazmun tomonidan bog‘lanib, yaxlit birlikni tashkil etadi hamda umumiy bir fikrni ifodalaydi.

G‘. Abdurahmonov tasnifiga ko‘ra, bosh va ergash gap o‘zaro:

- 1) o‘rinlashishi;
- 2) maxsus fe‘l formasining qo‘llanishi (turli grammatik vositalar bilan birikkan sifatdosh va ravishdosh);
- 3) yordamchi so‘zlar orqali munosabatga kirishadi.

Shu tasnifga ko‘ra bosh va ergash gaplarni belgilash esa ularning funksiyasi, konkret mazmuni, bog‘lanish usuli, leksik tarkibini aniqlash orqali ro‘y beradi²⁴.

Ergash gap odatda, bosh gapni izohlash funksiyasida keladigan, izohlash orqali mazmunan bosh gapga tobe bo‘lgan qo‘shma gap qismidir, ergash gap turli tobelantiruvchi vositalar yordami bilan bosh gapga bog‘lanadi. Bosh va ergash gapni biriktirishda turli leksik elementlarning – birinchbi navbatda nisbiy olmoshlarning roli kattadir, bu olmoshlar ham bosh gap, ham ergash gap tarkibida bo‘lishi yoki ulardan birining tarkibida bo‘lishi mumkin.

Bosh va ergash gap orasidagi bunday farqlar hamma va har qanday holatda to‘g‘ri kelavermaydi, bu farqlanuvchi tomonlarning hammasi hisobga olingandagina bosh va ergash gapni chegaralash mumkin bo‘ladi. Masalan, odatda,

²⁴ Abdurahmonov G‘. Qoshma gap sintaksisi. Toshkent, Fan 1964, 90-bet

ergash gaplar kesimlarining tobe formada bo'lishi bilan farqlanib turadi. Ammo ba'zi hollarda bosh va ergash gaplarni bog'lovchi vositalar bosh gap tarkibida bo'ladi: *Nihoyat Hirotdagi ba'zi mashhur zotlarni shunday taqlid qilindiki, o'tirganlar o'rinlaridan qo'zg'almay qoldilar* (Oybek).

O'zbek tilshunosligida ergash gapli qo'shma gaplar (boshqa ko'pgina tilshunosliklardagi kabi) mazmuniy va shakliy jihatdan 14 turga ajratiladi:

- 1) ega
- 2) kesim
- 3) to'ldiruvchi
- 4) aniqlovchi
- 5) ravish
- 6) o'lchov-daraja
- 7) chog'ishtirish – o'xshatish
- 8) sabab
- 9) maqsad
- 10) payt
- 11) shart
- 12) o'rin
- 13) to'siqsizlik
- 14) natija ergash gapli qo'shma gaplar

Ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar havola bo'lakli gaplar hisoblanadi, ularda ba'zan bosh gapda, ba'zan ham bosh, ham ergash gapda havola bo'lak mavjud bo'ladi. Natija ergash gapli qo'shma gaplarda havola bo'lak, asosan, bosh gapda bo'ladi. Qolgan barcha ergash gapli qo'shma gaplar havola bo'laksiz gaplardir.

2.1 Bir havola bo'lakli ega ergash gapli qo'shma gaplar.

Ega ergash gapli qo'shma gaplarda asosan ikki xil tabiatli mazmuniy munosabat ifodalanadi. Ana shunga bunday qo'shma gaplarning shakily jihatdan ham ikki xil ko'rinishi mavjud, ya'ni bir havola bo'lakli va ikki havola bo'lakli:

*Shunisi muhimki, do‘stlarimiz g‘alaba qildi; Musobaqada kim g‘olib chiqsa, o‘sha mukofotlanadi*²⁵. Aytib o‘tilganiday havola bo‘lak vazifasida olmosh yoki tabiatan olmoshlarga yaqin so‘zlar keladi. Ayni turdagi qo‘shma gaplarda havola bo‘lak eganing o‘rnida bo‘ladi. Aytilgan ikki ergash gapli qo‘shma gap ko‘rinishlaridan oldin birinchisini tahlil qilaylik. Birinchi qo‘shma gapda bosh gap (**shunisi muhimki**), ergash gap (**do‘stlarimiz g‘alaba qildi**) dan oldin kelgan. Bosh gapdagi ega o‘rnidagi havola bo‘lak **shu** ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalangan. Mazmuniy jihatdan olib qaralsa, qo‘shma gapda faqat bir denotativ voqea ifodalangan. Tabiiyki, qo‘shma gap ikki (yoki undan ortiq) voqea ifodasi uchun xoslangan shakl, demak, mazkur qo‘shma gapda ikki voqea ifodalanishi kerak. Gapda, haqiqatan ham, ikkinchi “voqea” ham bor, lekin tasavvur etilayotgan bu ikkinchi “voqea” denotativ voqea emas, balki modus “voqea” dir. Bu modus “voqea” alohida, ya’ni bosh gap orqali ifodalangan. Mazkur qo‘shma gapda bosh gap asosiy voqeani emas, balki modusni ifodalagani uchun mazmuniy – funksional nomuvofiqlik, ikki denotativ voqea emas, balki bir denotativ voqea ifodalanganligi uchun esa mazmuniy sintaktik nomuvofiqlik yuzaga kelgan. Ko‘rinib turibdiki, qo‘shma gap qismlari o‘rtasidagi munosabat mazmunan modus va denotativ voqea o‘rtasidagi munosabat. Ayni chog‘da modus ifodalangan bosh gapdagi ega havola bo‘lak bo‘lib, u mazmunan bo‘sh, ya’ni denotativ voqea ifodachisi bo‘lgan ergash gapga ishora qilish barobarida mazmunga ega bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, u bosh gapdagi predikatning mazmuniy valentligiga muvofiq qo‘llanishi lozim bo‘lgan nominativ voqeadan iborat subyektning o‘rinbosaridir, zero, ko‘rsatish olmoshlari aniq predmetni ham, har qanday voqeani ham ko‘rsatishi, ularga ishora qilaverishi mumkin.

Ergash gapli qo‘shma gaplarning bir havola bo‘lakli turida mazmuniy bog‘lanish juda zich, bu bog‘lanishni ta’minlovchi shakily vosita **-ki** uzvidir, lekin havola bo‘lakning bundagi muayyan ishtirokini ham ta’kidlamoq lozim, chunki ayni qo‘shma gap qismlari orasidagi bog‘lanishning sintaktik mexanizmida bu bo‘lak asosiy o‘rin tutadi. Bu fikrni havola bo‘lak tushirib qolgan holatlar uchun

²⁵ Nurmonov A., Mahmudov N. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent, O‘qituvchi, 1995, 166-bet

ham aytish mumkin, chunki ega vazifasidagi bu bo‘lak qo‘llanmaganda ham, predikatning subyekt valentligiga ko‘ra eganing sintaktik o‘rni (bo‘sh bo‘lsa ham) bilinib turadi. Nihoyat, shuni ta’kidlamoq lozimki, ega ergash gapli qo‘shma gaplarning bir havola bo‘lakli ko‘rinishida bosh gap ergash gapdan ajratib olinganda, ma’noga ega bo‘la olmaydi, chunki uning tarkibida aniq ma’noga ega bo‘lmagan havola bo‘lak bor. Lekin ulardagi ergash gap bosh gapdan ajratib olinganda ham ma’noga ega, boshqacha qilib aytganda, unda denotativ voqea ifodalangan, bosh gapda esa modus ifodalangan.

Bir havola bo‘lakli kesim ergash gapli qo‘shma gap. Kesim ergash gapli qo‘shma gaplarning ham ifodalangan mazmun munosabatining tabiatiga ko‘ra ikki xil ko‘rinishi farqlanadi, ya’ni bir havola bo‘lakli va ikki havola bo‘lakli qo‘shma gaplar: *Shartim shuki, uyga vaqtida kelasan. Sen nima bo‘lsang, biz ham shu*²⁶.

Birinchi tur kesim ergash gapli qo‘shma gaplar juda keng tarqalgan. Keltirilgan misolda bosh gap (Endi sizlarga muborak topshiriq shuki) ergash gapda (har biringiz alohida-alohida yo‘lga otlanasiz) oldin berilgan. Bosh gapdagina havola bo‘lak bor, u shu olmoshi bilan ifodalangan bo‘lib, kesim sintaktik o‘rinni egallagan. Mazmuniy jihatdan olib qaralsa, qo‘shma gap ikki denotativ voqea ifodalagan. Ammo bosh gapda ifodalangan denotativ voqea alohida olinganda “chala”, ya’ni predikat jihatdan mavhum. Bu mavhumlik ergash gapdagi denotativ voqea bilan aloqadorlikka ko‘ra yo‘qoladi, ya’ni bosh gapdagi denotativ voqeaning predikati ergash gapdagi denotativ voqea bilan teng. Boshqacha qilib aytganda, bir denotativ voqea (bosh gapdagi) ikkinchi denotativ voqea (ergash gapdagi) ni mazmunan bevosita o‘z ichiga oladi. Demak, denotativ voqealar o‘rtasidagi munosabat – aloqa juda zich. Bu o‘rinda yana bir narsani ta’kidlamoq joizki, bunday kesim ergash gapli qo‘shma gaplarda bosh gapdagi kesimning **shu** qabilidagi havola so‘zlar bilan ifodalanishi ichki bir zaruriyatdir. Masalan, *Shartim shuki, uyga vaqtida kelasan. Buning qizig‘i shu yerdaki, hech kim miq etmay turaveradi (Oybek) eng muhimi shundaki, biz o‘z o‘rnimizni egallab oldik.*

²⁶ Nurmonov A., Mahmudov N. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent, O‘qituvchi, 1995, 180-bet

(Yoshlik jurnalidan) *Maqsadimiz shundan iboratki, tajribamiz ko‘zlangan natijani berishi uchun bor kuchimizni ishga solamiz.* (Islom Karimov)

Bir havola bo‘lakli to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gaplar.

Ifodalanadigan mazmuniy munosabatning tabiatiga ko‘ra to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gaplarning ham ikki ko‘rinishi farqlanadi, ya’ni, bir havola bo‘lakli va ikki havola bo‘lakli to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gaplar. *Ahmadjon faqat shuni biladiki, nemislar bu tepalikni haddan tashqari o‘qqa tutdilar.* (Abdulla Qahhor) *Kimki bo‘sa dilozor, undan el-u yurt bezor.* (Maqol)

Bir havola bo‘lakli to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gaplarda havola bo‘lak bosh gap tarkibida keladi. Bu havola bo‘lak ko‘pincha **shu** olmoshi orqali ifodalanadi. Masalan: *Ahmadjon faqat shuni biladiki, nemislar bu tepalikni haddan tashqari o‘qqa tutdilar.* (Abdulla Qahhor) gapida havola bo‘lak vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida kelib, mazmunan ergash gapda ifodalangan denotativ voqeaga ishora qiladi. N. Mahmudovning fikricha, bu qo‘shma gapda faqat bitta denotativ voqea ifodalangan, ikkinchi “voqea” esa bu voqeani tasvirlovchi modusdir. Modusning alohida ta’kidni idodalash zarurati mazkur voqea ifodasi uchun sodda gap emas, balki qo‘shma gap shaklining tanlanishiga olib kelgan. Mazkur qo‘shma gapning mazmuni esa denotativ voqea bilan modus voqea o‘rtasidagi munosabatdan iborat. Agar modusni ta’kidli ifodalashga zaruriyat bo‘lmasa, denotativ voqea ifodasi modus voqea ifodasining ichiga shaklan kiritiladi va sodda gapga aylanadi²⁷. Demak, tahlil etilgan gap aslida “Ahmadjon faqat nemislarning bu tepalikni haddan tashqari qattiq o‘qqa tutganligini biladi” tarzida bo‘lib, tildagi ortiqchalik tamoyili asosida tuzilgan. Natijada N. Mahmudov ta’kidlanganidek, mazkur qo‘shma gapda ham mazmuniy – funksional, ham mazmuniy – sintaksis nomuvofiqlik yuzaga kelgan. Bir havola bo‘lakli to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gaplarda havola bo‘lak to‘ldiruvchi vazifasida faqat bosh gapda mavjud bo‘ladi va u asosan shu olmoshi orqali ifodalanadi. Bu havola so‘z – *ki* uzvi bilan birgalikda bosh gapni ergash gap bilan bog‘lovchi vosita vazifasini bajaradi. Masalan, *Shuni unutmaginki, mehnat qilgan murodiga yetadi.* (Aql

²⁷ Nurmonov A., Mahmudov N. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent, O‘qituvchi, 1995, 185- bet

aqldan quvvat olar” kitobidan) Keltirilgan bosh gap (**Shuni unutmaginki**) ergash gap (**Mehnat qilgan murodiga yetadi**) dan oldin kelgan. Albatta, bu ko‘rinishdagi qo‘shma gaplar uchun bu doimiy holatdir. Bosh gapdagi havola bo‘lak ko‘rinib turganiday, vositasiz to‘ldiruvchi sintaktik o‘rnini egallagan. Bu vositasiz to‘ldiruvchi havola bo‘lak sifatida mazmunan ergash gapda ifodalangan denotativ voqeaga ishora qiladi, mantiqan uni bosh gapga olib kiradi. Bosh gapda esa denotativ voqea emas, balki modus “voqea” ifodalangan. Boshqacha qilib aytganda, ayni qo‘shma gapda faqat bir denotativ voqea ifodalangan, ikkinchi “voqea” esa bu voqeani tavsiflovchi modusdir. Havola bo‘lak vazifasidagi so‘z faqat vositasiz to‘ldiruvchi o‘rnidagina emas, balki vositali to‘ldiruvchi o‘rnida bo‘lganida ham, mazmuniy xususiyatlar to‘laligicha saqlanaveradi. Tabiiyki, havola bo‘lakning vositasiz yoki vositali to‘ldiruvchi sintaktik o‘rnida bo‘lishi ayni bosh gapdagi kesim o‘rnini egallagan fe‘l (yoki boshqa turkum) ning ma‘nosi, valentligi bilan bog‘liq. Mazmuniy grammatikada obyektli fe‘llar kelganda, havola bo‘lak vositali to‘ldiruvchi o‘rnida bo‘ladi: *Biz shunga aniq ishonamizki, millatlararo nizolar yaxshilikka olib kelmaydi. (Islom Karimov) Men shundan qo‘rqamanki, u bu ishni oxiriga yetkazishi qiyin.* (Tohir Malik)

Bunday to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gaplarda bosh gapning kesimi so‘zlar bo‘ladi. Bu vazifada ko‘proq bilmoq, ko‘rmoq, aytmoq, ta’kidlamoq, esda tutmoq, esdan chiqarmoq, payqamoq, ishonmoq, qo‘rqmoq, fahmlamoq, tushunmoq, ogoh bo‘lmoq, o‘ylamoq, sezmoq, qaror qilmoq, aniqlamoq, tan bermoq, his etmoq, mo‘ljallamoq, shubhalanmoq, kabi his-sezgi, idrok, nutqiy va fikriy faoliyatni bildiruvchi so‘zlar keladi. Bunday ma’nolar modus “voqea” ifodasi uchun juda muvofiq keladi. Bu o‘rinda yana ta’kidlash kerakki, aytmoq, demoq, xabar qilmoq kabi so‘zlar bosh gapda kesim bo‘lib kelganda ham ular modus ifodasi uchun xizmat qiladi. Bunday qo‘shma gaplarda V.V. Martinov iborasi bilan aytganda, real borliqdagi voqea bilan bu voqea haqidagi xabar o‘rtasidagi munosabat aks etadi. Boshqa keltirilgan fe‘llarning ma‘nosida “baho”, “ruhiy holat”, “taxmin”, “ishonch” kabi modallik uzvlarining borligi ko‘rinib turibdi. Bular ham yana shuni ko‘rsatadiki, to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma

gaplarning ayni turida bosh gap hamisha modusni ifodalaydi. Masalan, *Hozircha faqat shuni aytishim mumkinki, safar jiddiy, og'ir va mas'uliyatli bo'ladi.* (Asqad Muxtor) *Avvalo shuni aytish kerakki, ijodkorning o'zi ko'nikkan ijodiy tamoyillarini o'zgartirish mushkul masala* (A. Azam)

Bosh gapdagi to'ldiruvchi vazifasidagi havola bo'lak shaklan ifodalanmasligi ham mumkin. Lekin uning o'rni baribir sezilarli, chunki tegishli kesim vazifasidagi so'zning valentligi uni ko'rsatib turadi. Shu mazmuniy valentlik baribir ergash gapdagi denotativ voqeaga ishora qilaveradi va shu asosda ayni denotativ voqeaga bosh gapda ifodalangan modus nisbatlanaveradi. Demak, bosh gapdagi havola bo'lakning ifodalanmasligi qo'shma gapdagi mazmuniy xususiyatlarga ta'sir etmaydi. Masalan, *Yaxshi bilar edimki, shunday suluv qizlar bizda juda siyrak bo'ladi* (G'afur G'ulom). *Mana shundagina Ergash fahmladiki, buvasi endi yo'q.* (Asqad Muxtor).

Xullas bir havola bo'lakli to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gap ergash gapdan ajratib olinsa, mazmunga ega bo'lmaydi, ergash gapda esa denotativ voqea ifodalanadi.

Bir havola bo'lakli aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar.

Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplarda, asosan, ikki denotativ voqea o'rtasidagi munosabat ifodalanadi. Bu denotativ voqealarning tabiati va ifodalanishidagi o'ziga xoslikka ko'ra bir havola bo'lakli va ikki havola bo'lakli aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplarni farqlash maqsadga muvofiq.

Shunday so'zlar borki, ular kapalakka o'xshab jumladan – jumлага yengil ko'chib yuraveradi... (Abdulla Qahhor) gapi bir havola bo'lakli aniqlovchi ergash gapli qo'shma gapdir. Unda **shunday** so'zidan iborat havola bo'lak mavjud bo'lib, u bosh gapdagi **so'zlar** so'zi bilan ifodalangan eganing aniqlovchisi bo'lib kelgan. Bosh gapda ham, ergash gapda ham alohida – alohida denotativ voqea ifodalangan. Ma'lumki, aniqlovchi gapning konstruktiv bo'lagi emas, uning gap tarkibida mavjud yoki mavjud emasligi gapning sintaktik asosiga ta'sir etmaydi. Ammo bosh gapdagi havola bo'lak orqali ifodalangan aniqlovchi anchayin muhim, chunki u ergash gapga ishora qilish yo'li bilan ergash gapda ifodalangan denotativ

voqeani bosh gapda ifodalagan denotativ voqea ichiga olib kiradi. Ta'kidlash kerakki, aniqlovchi bo'lagining gapning konstruktiv bo'lagi bo'la olmagan uchun ham bosh gapning mazmuni sifatidagi denotativ voqea hozirgacha ko'rib o'tilgan ergash gapli qo'shma gaplardagidan farqli o'laroq chala bo'lmaydi. Denotativ voqealarning o'zaro zich aloqasini ta'minlaydigan mazmuniy jihatlardan yana biri munosabatga kirishayotgan denotativ voqealar muayyan tarkibiy-uzvlarga ko'ra umumiylikka ega bo'ladi, bu aksar hollarda shaklan ham ifodalanadi. Mazkur qo'shma gapda bosh gapdagi voqea subyekt, ya'ni ega aniqlanmoqda, ergash gapda ifodalangan denotativ voqeaning subyekt ham bosh gapdagi subyektning aynan o'zi **so'zlar** va **ular** so'zlari orqali ifodalangan va tegishli gaplarning egasi sifatida kelgan. Demak, bosh gapdagi havola bo'lakdan iborat aniqlovchiga ega bo'lgan so'z ergash gapda mazmunan u yoki bu tarzda takrorlanishi mumkin.

Havola bo'lakdan iborat aniqlovchi bosh gapning ot kesimini aniqlab kelishi ham mumkin. Bunda bosh gapdagi denotativ voqeaning subyekt bir narsadan iborat bo'lishi mumkin. Masalan, *Sevgi shunday navbahorki, u tikandan gul qilur* (Erkin Vohidov) gapida bosh gapning kesimi (navbahor) **shunday** havola bo'lagi bilan aniqlangan. Navbahor so'zining ham, u olmoshining ham ayni matndagi denotati bitta narsa ikki denotativ voqea tarkibiga ikki xil uzv sifatida – predikat va subyekt sifatida kirgan. Bu umumiylik mazkur qo'shma gapdagi mazmuniy munosabatni ta'min etgan. Ammo bu ya'ni bosh gapdagi predikatning ergash gapdagi subyekt bilan denotativ bir xillikka ega bo'lishi mumkin. Ergash gapdagi bosh gap predikati bilan denotativ bir xil bo'lgan bo'lak tushib qolishi ham mumkin. Bunda mazmuniy munosabatda o'zgarish bo'lmaydi. Misollar: *Uning xo'jaligi bir maktabki, unda mana man degan xo'jalik rahbarlari o'qisa arziydi* (Said Ahmad). *U shunday ibliski, boylikka xirs qo'ygan har qanday odamni yo'ldan ozdiradi* (O. Yusupov)

Qisqasi, bir havola bo'lakli aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplarda mazmuniy – funksional va mazmuniy – sintaktik muvofiqlik mavjud bo'ladi, ulardagi mazmun ikki (yoki undan ortiq) denotativ voqea o'rtasidagi munosabatdan iborat. Bu munosabatning yuzaga kelishida voqealar uzvlari

o'rtasidagi denotativ umumiylik muhim rol o'ynaydi. Bosh gapda havola bo'lak qaysi bo'lakni aniqlasa, shu bo'lakning denotati ergash gapda ham muayyan bo'lakning denotati sifatida mavjud bo'ladi. Bunday gaplardagi shakliy bog'lovchi vosita *–ki* uzvidir.

Bir havola bo'lakli o'lchov-daraja ergash gapli qoshma gaplar.

O'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplar havola bo'laklarning ishtirokiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

- 1) Bir havola bo'lakli gaplar
- 2) Ikki havola bo'lakli gaplar

Bir havola bo'lakli o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplarda faqat bosh gap tarkibida havola bo'lak qo'llanadi. Havola bo'lak vazifasida kelgan **shunday, shu darajada, shu qadar, shunchalik** kabi havola so'zlar mavjud bo'ladi, bu so'zlar ba'zan o'lchov-daraja holi sifatida bir o'zi, ba'zan birikma tarkibida kelishi mumkin. Bu havola bo'lak ergash gapni bosh gapga olib kiruvchi, ergash gapning bosh gapdagi "o'rinbosari" sifatida muhimdir. Ergash gapdagi denotativ voqea bosh gapdagi denotativ voqeadagi harakatning bajarilish darajasini ko'rsatuvchi uzv sifatida ayni asosiy voqea bilan aloqalanadi. Masalan, *O'shanda shu qadar o'lgim kelganki, buni so'z bilan tasvirlab bo'lmaydi* (N. Qobul). *Bir yilda kabinetini shu darajada o'zgartirib yuboribdiki, ko'rsangiz tarix muzeyi deysiz* (A. Ko'chimov). *Hali onaxonning bilmaganlari shu qadar ko'p ediki, so'rab oxiriga yetolmasday ko'rindi* (A. Muxtor).

Bu turda bosh gap mazmunan erkin bo'lolmaydi, ergash gap esa bo'lishi mumkin.

O'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplarda shakliy-mazmuniy nomuvofiqlik deyarli kuzatilmaydi. Chunki bunday qo'shma gaplarda ifodalangan har bir denotativ voqea gap sintaktik strukturasi muvofiq bo'ladi.

Bir havola bo'lakli natija ergash gapli qo'shma gaplar.

Bunday tuzilishdagi qo'shma gaplarda natija munosabati shakllanadi. Bu mazmuniy munosabat bir voqelik natijasi sifatida ikkinchi gapda aks etadi. Ya'ni ergash gapdagi harakat bosh gapdagi harakatning natijasi sifatida yuzaga

chiqadi. Masalan, “*Sen rais Torani bir o‘ray-bir o‘rayki, qaysi teshikka kirganini bilmay qolsin*” (Abdulla Qahhor) gapida “Sen rais To‘rani bir o‘ray-bir o‘rayki” gapi ergash gap, “qaysi teshikka kirganini bilmay qolsin” gapi bosh gap. Bosh gapda aks etgan voqelik ergash gapda ifodalangan voqelik asosida yuzaga chiqishi mo‘ljallangan natijani anglatadi. Anglashiladiki, natija ergash gapli qo‘shma gaplardagi fikr mo‘ljallangan yoki real xarakterda bo‘ladi. Mana shu belgi asosida natija ergash gapli qo‘shma gaplarning mazmuniy xususiyatlarini M. Asqarova quyidagicha belgilaydi:

- a) **natija ergash gapdagi fikr real bo‘ladi**
- b) **natija ergash gapdagi fikr mo‘ljallangan va taxmin qilingan bo‘ladi**²⁸.

Natija ergash gapli qo‘shma gaplarda bir voqea (natija) ikkinchi voqea sababli yuzaga keladi, shunga ko‘ra bunday gaplar “sabab-natija” munosabatiga asoslanadi. Bu xususiyat natija ergash gapli qo‘shma gaplarni “Shartlanganlik munosabatini ifodalovchi ergash gapli qo‘shma gaplar” paradigmasiga birlashtiradi. Natija ergash gapli qo‘shma gap qismlari *–ki* bog‘lovchisi yordamida birikadi. Masalan, *U eshikni shunday qattiq taqillatdiki, uydagilarning hammasini uyg‘otib yubordi.* (Abdulla Qahhor)

Natija ergash gapli qo‘shma gaplarda natija munosabatini kuchaytirish, alohida ta‘kidlash maqsadida *natijada, oqibatda* so‘zlari qo‘llanadi. Masalan, *Zambarakning gumburlashidan haybatli bir guvillash hosil bo‘ldiki, natijada bu yerda alohida to‘pning ovozi butkul eshitilmay qoldi* (Abdulla Qahhor).

Natija ergash gapli qo‘shma gaplarning bosh gapi tarkibida qo‘llangan *shunday, shu darajada, shunaqa, shunaqangi, shunchalik, shuncha, shu qadar, chunonam*, nisbiy so‘zlari havola bo‘lak vazifasini bajaradi. Shunga ko‘ra bunday gaplar bir havola bo‘lakli gaplar hisoblanadi. Masalan, *Qonga, yaraga, ingrashlarga shunday odatlangan edilarki, ularni hech narsa taajjublantirmasdi* (Oybek). Shuni aytish kerakki, bosh gapdagi harakat atay ergash gapdagi harakatni amalga oshirish uchun qilinmaydi, balki ergash gapdagi harakat bosh gapdagi

²⁸ Asqarova M. Hozirgi zamon o‘zbek tilida qo‘shma gaplar. Toshkent, 1960, 68-bet

harakatning natijasi sifatida o‘z-o‘zidan kelib chiqadi. Masalan, *Yigitlar ... uni shunchalik izzat qilar ediki, Asqar ota bu juvonning oddiy traktorchigina ekaniga shubhalanib qoldi* (Abdulla Qahhor). *Biroq dehqonlar o‘rtasida mehnat taqsimlash shunday o‘zgardiki, har ikki tomon bir-birovlari kamsitmay boshladilar* (G‘afur G‘ulom). *Malik muallim Suyarqulning qulog‘ini shunday buradiki, bolaning ko‘zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi* (A. Ko‘chimov).

Aytish kerakki, bunday qo‘shma gaplarning bosh gapi tarkibida **deyarli, hamisha, shunday, shunaqa, chunonam** kabi so‘zlar bo‘ladi va ular bosh gapdagi voqeaning natijasi borligiga, ya’ni ergash gapga ishora qilib turadi, shuning uchun ularni havola bo‘laklar deyish mumkin. Natija ergash gapli qo‘shma gaplar, demak, bir havola bo‘lakli gaplardir, bu bo‘laklar bosh gapda, asosan, hol o‘rnida keladi. Ana shu bo‘lakka ko‘ra bosh mazmuni erkin bo‘lolmaydi, ergash gap esa erkin bo‘la oladi.

Natija ergash gapli qo‘shma gaplarda voqealarning mazmuniy xususiyatlari asosan ikki xil bo‘ladi. M. A. Asqarova tog‘ri ko‘rsatganidek, 1) natija ergash gapdagi fikr real bo‘ladi; 2) natija ergash gapdagi fikr mo‘ljallangan va taxmin qilingan bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, natija ergash gapli qo‘shma gaplarda ba’zan real voqealar o‘rtasidagi ba’zan esa irreal voqealar o‘rtasidagi munosabat ifodalanadi. Yuqoridagi keltirilgan gaplarda real voqealar o‘rtasidagi munosabat ifodalangan. Agar irreal voqealar o‘rtasidagi natija munosabati ifodalanadigan bo‘lsa, ergash va bosh gaplarning kesimi buyruq-istak maylidagi fe‘ldan iborat bo‘ladi, ba’zan bosh gapning kesimi kerak, zarur kabi so‘zlar ishtirok etgan birikmadan iborat bo‘lishi ham mumkin. Masalan, *Shunday tasvirlab bersinki, o‘quvchi bu odamning yaxshi yoki yomonligini shu ovqat yeb o‘tirishdan bilib olsin* (F. Musajonov). *Bir ish qilaylikki, o‘z oyog‘i bilan kelsin* (Shukur Xolmirzayev).

... Biz chorvachilikda ishni shu qadar ongli va davr talabi darajasida tashkil etishimiz kerakki, yoshlar eng yaxshi zavodlarga oqib borgandek unga ishlatilsin (N. Qobul).

Natija ergash gapli qo'shma gaplardagi mazmuniy munosabat ham subyektiv murakkablashishi mumkin. Bu natija ma'nosini ta'kidlash, ergash gapdagi voqeani kelib chiqishi mumkin bo'lgan bir necha natijadan biri – eng kichigi ekanligini ko'rsatish ma'nosi kabilar hisobiga bo'ladi. Birinchi ma'no nozikligi **oqibatda, natijada** kabi so'zlar vositasida ifodalanadi: *Keyingi vaqtlarda u shunday tadbirlar qo'lladiki, oqibatda Malosh Zoltan bilan Zufar bir-birlarini ko'ra olmadi* (O. Yusupov). *Yozuvchi ana shunday bir voqeani shunday favqulodda mahorat bilan tasvirlaganki, natijada kitobxon insonning hayotga muhabbati benihoya qudratli kuch ekanini his qiladi* (Abdulla Qahhor). Keyingi ma'no nozikligi **hatto** so'zi bilan ta'kidlanadi. *Kecha shu qadar jimjitki, hatto keksa qayrag'ochda mudragan chumchuqning iniga sig'may tipirchilagani ham eshitiladi* (Said Ahmad). *Men uning og'zini shunday mahkamlab qo'yamanki, hatto ichidagi sirini soyasiga ham aytmaydigann bo'ladi* (O. Yusupov). Voqealarning tabiati qanday bo'lishidan qat'iy nazar, baribir ular denotativdir. Shuning uchun ham natija ergash gapli qo'shma gaplarda asosiy hollarda mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik yuzaga kelmaydi.

3.2. Ikki havola bo'lakli qoshma gaplar.

Ega ergash gapli qo'shma gapning ikkinchi ko'rinishi – ikki havola bo'lakli ega ergash gapli qo'shma gapdir. *Musobaqada kim g'olib chiqsa, o'sha mukofotlanadi*. Bu gapda bosh gap (o'sha mukofotlanadi) ergash gap (musobaqada kim g'olib chiqsa) dan keyin kelgan. Ko'rinib turganiday, har ikki gapda ham havola bo'lak bo'lib, ular **kim** va shunga muvofiq **o'sha** so'zlari bilan ifodalangan. Ana shu biri ikkinchisiga muvofiq keluvchi havola bo'lakning mavjudligi, shunga ko'ra o'ziga xos sintaktik mexanizmga ko'ra (O'zaro tobelanish) ikki gapda juda zich bog'langan. Mazmunan olib qaralsa, qo'shma gapda ikki o'zaro bog'langan denotativ voqea ifodalangan. Bir qarashda –**sa** qo'shimchasi va uning ma'nosiga ko'ra bu ikki denotativ voqea o'rtasidagi munosabat shart munosabatidan iborat, ya'ni birinchi voqeaning amalga oshishi o'z-o'zidan ikkinchi voqeani keltirib chiqaradi. Ammo diqqat bilan qaralsa, mazkur shart ma'nosi ikkinchi o'ringa

surilgan. Bu shu bilan bog'liqlik, ikkala shart voqea tabiatan har xil emas, ya'ni birinchi voqea subyekt jihatidan umumlashgan, mavhum, ikkinchi voqea esa subyekt jihatidan birinchi voqea bilan nisbatlangan holda aniq. Demak, voqealar mazmuni teng emas. Ayni paytda bosh va ergash gaplardagi egalar o'rtasida mazmuniy-sintaktik muvoziylik bor, ya'ni umuman, **kim va o'sha** olmoshlari ayni matnda deyarli bir denotativ ishoraga ega, faqat bu ishora ularning birida savol bilan o'ralgan, ikkinchisida esa savolsiz. Qiyoslang: Musobaqada kim g'olib chiqsa, o'sha mukofotlanadi gapida "g'olib chiqish" harakatini ham, "mukofotlanish" harakatini ham bir subyekt bajaradi, yoki: *Musobaqada Ahmad g'olib chiqsa, Ahmad mukofotlanadi.*

Aytish kerakki, ikki havola bo'lakli ega ergash gapli qo'shma gapda ikki noteng tabiatli denotativ voqea o'rtasidagi munosabat ifodalanadi. Aytilganlarni quyidagi misollarda ko'rish mumkin: ba'zan ergash gapdagi havola bo'lak **-ki** uzvi bilan ham qo'llanishi mumkin, u ta'kid uchun xizmat qiladi:

Kim nafsini tiymasa, u tog'ri yo'ldan ham sirg'anar (Maqol).

Kim o'ziga qasd aylasa, u iblisga xizmatkor. Kimki ikkilanuvchilarga yordam qilishni istar ekan, u avvalo o'zining ikkilanishiga barham berishdan ish boshlashi kerak ("Aql aqldan quvvat olar").

Kimki taqdirga tan bersa, hayot to'lqinida g'arq bo'lib ketadi (Odil Yoqubov).

Ikki havola bo'lakli ega ergash gapli qo'shma gapda havola bo'lak sifatida faqat shaxs bilan aloqador bo'lgan **kim – shu, kim – u, kim – o'sha** qabilidagi qarshilantirilgan olmoshlargagina ishtirok etmaydi, shaxs ma'nosiga ega bo'lmagan **nima – shu, nima – o'sha, nima narsa – o'sha narsa** kabi qarshilantirishlar ham kelaverishi mumkin:

Nima narsa ko'p bo'lsa, o'sha narsa xor bo'ladi (Maqol).

Qozonga nima tushsa, cho'michga ham o'sha tushadi (Maqol)

Xulosa qilib aytganda, ega ergash gapli qo'shma gaplarning ikki havola bo'lakli ko'rinishida ega bosh gap ham, ergash gap ham alohida olinganda, ma'noga ega bo'lolmaydi, chunki har ikki gapda ham havola bo'lak mavjud.

Buning ustiga bunday qo'shma gap qismlari o'rtasida bir tomonlama emas, balki ikki tomonlama tobelanish, ya'ni o'zaro tobelanish bor.

Ikki havola bo'lakli kesim ergash gapli qo'shma gaplar.

Kesim ergash gapli qo'shma gaplarning ikki havola bo'lakli turi keng tarqalmagan. Bir havola bo'lakli kesim ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gap alohida olinganda ma'noga ega emas, ergash gap esa ma'noga ega. Ikki havola bo'lakli gapda esa har ikki qism ham alohida olinganda ma'noga ega bo'lmaydi. Masalan,

Sen nima bo'lsang biz ham shu (Shukur Xolmiorzayev).

Mazkur gapda bosh gapning kesimi **shu** havola bo'lagi bilan, ergash gapning kesimi esa **nima bo'lsang** havola bo'lagi bilan ifodalangan. Aslida bosh gapning kesimi ham shu bo'lamiz shaklida bo'lishi kerak, lekin bo'lmoq har ikki o'rinda ham (**nima bo'lsang – shu bo'lamiz**) yordamchi fe'l bo'lgani uchun keyingi o'rinda tushib qolgan. Ergash gapdagi nima (bo'lsang) havola bo'lagi bilan bosh gapdagi shu havola bo'lagi bir-birini taqozo etadi, o'zaro tobe aloqa yuzaga kelgan. Ega ergash gapli qo'shma gaplarning tegishli turidagi kabi ikki noteng denotativ voqea o'rtasidagi munosabat ayni qo'shma gapning mazmunini tashkil etadi. Bir umumlashgan denotativ voqea ikkinchi bir predikat jihatdan aniq bo'lmagan denotativ voqeaning ichiga predikat sifatida kiradi. Shuni aytish kerakki, har ikki denotativ voqeaning predikati baribir aniq aytilmaydi, lekin tinglovchi uchun umumiy tarzda idrok etiladigan bo'ladi. Masalan:

Kim ishlasa, yer o'shaniki (Asqad Muxtor)

Zebi aya qayerda bo'lsa, o'g'il va qizlar shu yerda edi (M. Ismoiliy)

Bunday holatdagi qo'shma gaplardagi muayyan sintaktik surilishning borligi ularni kesim ergash gapli qo'shma gaplar sifatida talqin etish imkonini beradi. Masalan, oxirgi misoldagi **qayerda – shu yerda** qarshilantirishidagi havola bo'laklar odatda o'rin ergash gapli qo'shma gaplarga tegishlilik, ammo shu **bu yerda** birikmasi ayni gapda kesim sintaktik o'rnida, **edi** to'liqsiz fe'li o'zi mustaqil kesim bo'la olmaydi. Uning o'rnida boshqa to'liq fe'l bo'lganda, u kesim bo'la olardi va **shu yerdan**ing sintaktik maqomi hol bo'lardi. Unda qo'shma gapni o'rin

ergash gapli qo'shma gap sifatida baholash to'g'ri bo'lardi. Lekin mazkur o'rinda shunday emas. Shuning uchun bunday holatlarni kesim ergash gapli qo'shma gap sifatida baholash maqsadga muvofiq. Aytish kerakki, kesim ergash gapli qo'shma gaplarning birinchi turida bosh gap alohida olinganda ma'noga ega emas, ergash gap ikkinchi turida esa ilgari aytilgan o'zaro tobelanishga ko'ra esa ma'noga ega, har ikki qism ham alohida ma'noga ega emas.

Ikki havola bo'lakli to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar.

Ikki havola bo'lakli to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarda **nimani – shuni, kimni – o'shani, uni** tarzidagi havola bo'laklar qo'llanadi. Masalan:

"Ota nimani talab qilsa, shuni bajarib yurdi" (Abdulla Qahhor).

Gapida ikki denotativ voqea ifodalangan. Qo'shma gapning mazmuni ana shu ikki denotativ voqea o'rtasidagi munosabatdan iborat bo'ladi. Ayrim hollarda bosh gapda havola bo'lak ifodalanmasligi mumkin:

Nimadan og'iz ochilsa, to (shuni) bilmaguncha qo'ymaydi (Abdulla Qahhor).

Ba'zan to'ldiruvchi ergash gapdagi havola bo'lak ega, bosh gapdagi havola bo'lak esa to'ldiruvchi vazifasida kelishi mumkin. Masalan:

Kimki bo'lsa dilozor, undan el-u yurt bezor (Maqol).

Nutqda ba'zan bunday ergash gapli qo'shma gaplarning bosh gaplari tarkibidagi to'ldiruvchi vazifasidagi havola bo'lak shaklan ifodalanmasligi ham mumkin. Ammo bu mazmuniy munosabatlarning to'liq ifodalanaverishiga to'sqinlik qilmaydi. Buni quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin.

Nimani bersangiz, shunga roziman (N. Qobul).

Ularning dadalari nima deyishsa, o'shani olib berishadi. (Said Ahmad).

Yuqorida ko'rib o'tilgan misollarda havola bo'laklar o'rtasida moziylik bor, havola bo'lakning har ikkalasi ham to'ldiruvchi sintaktik o'rnini egallagan. Xullas, ikki havola bo'lakli to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarda esa har ikki qism ham biri ikkinchisiz mazmunga ega bo'lolmaydi.

Ikki havola bo'lakli aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar.

Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplarning ikki havola bo'lakli turida **kimning – uning, kim – u, qanday – shunday, qaysi – o'sha** tarzidagi qarshilantirilgan havola bo'laklar mavjud bo'ladi. Bunday gaplardan ham ikki denotativ voqea ifodalanadi va ular o'rtasidagi aloqa juda zich bo'ladi, chunki bunday gaplarda ham mazmunan, ham shaklan o'zaro tobelanish mavjud. Masalan,

Kimning quroli bilim bo'lsa, uning kelajagi porloq (J. Abdullaaxonov).

Xalq qaysi yo'ldan yursa, sen ham shu yo'ldan yur (Oybek).

Kim unga kattaroq va'da bersa, o'shaning orqasidan ketaveradi (O. Yusupov).

Nihoyat shuni aytish kerakki, aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplarning birinchi turida bosh gap avtosemantik bo'la oladi, ergash gap esa hamisha sinsemantik, ikkinchi turida esa har ikkala gap ham sinsemantikdir.

Ikki havola bo'lakli payt ergash gapli qo'shma gaplar.

Payt ergash gapli qo'shma gaplarning asosiy qismi havola bo'laksiz bo'ladi. Ergash gap payt holi sifatida to'g'ridan-to'g'ri bosh gap tarkibiga kiradi, natijada havola bo'lakka zaruriyat bo'lmaydi. N. Mahmudovning qayd etishicha, keng tarqalmagan bo'lsada, nutqda ikki havola bo'lakli payt ergash gapli qo'shma gaplar ham uchraydi. Bunday gaplarda **qachon – shunda //o'shanda// o'sha paytda** tarzida qarshilantirilgan havola bo'laklar ham mavjud bo'ladi. Masalan:

Sen qachon o'ninchi sinfni bitirsang, o'shanda soat olib beraman.

Mazkur gapda bosh gapdagi **o'shanda** havola bo'lagi payt vazifasida kelgan, ergash gapda ham xuddi shunday sintaktik o'rindagi mos **qachon** havola bo'lagi bor. Ikkala denotativ voqea payt jihatdan umuman anglashilarli bo'lsa-da, ochiq aniq aytilmaydi. Bu gapda havola bo'lakni chiqarib yuborganda ham gapdagi payt munosabati o'zgarmaydi, faqat ta'kid bir qadar kuchsizlanadi:

Sen o'ninchi sinfni bitirganingda, soat olib beraman.

Aytish kerakki, avvalgi asosiy tur – havola bo'laksiz payt ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gap mazmunan erkin, ergash gap erkin emas bo'lsa, keyingi ikki havola turida bosh gap ham, ergash gap ham erkin emas.

Ikki havola bo'lakli o'rin ergash gapli qo'shma gaplar.

N.Mahmudov o‘rin ergash gapli qo‘shma gaplar, asosan, ikki havola bo‘lakli turdan tashkil topishi haqida fikr yuritadi. Bunday qo‘shma gaplarda bosh gap ham, ergash gap ham denotativ voqeani ifodalaydi. Bu denotativ voqealar o‘rin jihatidan umumiylikka ega bo‘ladi, ammo ergash gapda ifodalangan denotativ voqeaning sodir bo‘lish o‘rni aniq emas, balki umuman aytiladi, shuning uchun ham u *qayerda, qayerdaki, qayerga* kabi so‘roq olmoshlari bilan ifodalanadi. Bosh gapda esa ana shu so‘roqlarga muvofiq keluvchi *o‘sha yerda, u yerda, u yerga* kabi havola bo‘laklar mavjud bo‘lib, ular bosh gapdagi harakatning bajarilishi o‘rnini bildiradi, ya’ni o‘rin holi sintaktik pozitsiyasida bo‘ladi. *Qayerda – u yerda* qabilidagi havola bo‘laklar bir-birini doimiy taqozo qiladi va denotativ voqealar o‘rtasidagi mustahkam aloqani ta’min etadi. Masalan: *Qayerda suv serob bo‘lsa, u yerda tabiat ko‘rkam bo‘ladi* (“Yoshlik”).²⁹

Yozma manbalar tilini tahlil qilganimizda esa o‘rin ergash gapli qo‘shma gaplarning shakllanishida o‘ziga xosliklarni kuzatdik. Yuqoridagi ergash gap turlarida bo‘lgani kabi birinchi bosh gap tarkibidagi havola bo‘lak nutqdan tushirib qoldirilganligini guvohi bo‘ldik. Masalan: *Qayu yerga tosh tegsa, o‘tar erdi, boshindin oyoqing‘a tegincha (TF)*. Mazkur misol orqali *qayeriga tosh tegsa, o‘sha yeridan (joyidan) o‘tar edi* mazmunini anglash mumkin. Yana misollarga murojaat qilsak,

Qaydakim boda bo‘lur, so‘z ko‘p o‘lur,

Bo‘lsa ham boda bila so‘z xo‘b o‘lur (SHN 15). Mazkur baytda ham yaxlit holda gaplar o‘zaro o‘rin munosabatiga ko‘ra bog‘langan bo‘lib, qayda – o‘sha yerda tarzida savol-javob mazmuni ostida birlashgan. Quyidagi misollarimiz haqida ham xuddi shu fikrni bildirish mumkin. Ularning qo‘llanishi va mazmuniy tuzilishida farq yo‘q. Quyida keltirilgan misollarimiz ham unga guvohlik beradi. Masalan:

Qaydakim, husniha javlon bo‘ldi,

Bir pari chehra namoyon bo‘ldi (SHN 19).

²⁹ Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Тошкент, Фан. 1992. 275-б.

*Qaydakim bo'ldi ayon ishq asari,
Bor edi barining andin xabari (SHN 19).
Qaydakim, bor sening oting mastur,
Bo'lur ul to'rtning oti mazkur (SHN 23).*

O'rin ergash gapli qo'shma gaplarda mazmuniy – sintaktik muvofiqlik asosan saqlanadi. Ayni paytda ularda bosh gap ham, ergash gap ham mazmunan erkin emas, chunki qo'shma gap qismlari aro o'zaro tobelanish mavjud.

Ikki havola bo'lakli o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplar.

O'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplarning mazmuni munosabatining ifodalanishiga ko'ra ikki xil ko'rinishi farqlanadi: bir havola bo'lakli va ikki havola bo'lakli. Ikki havola bo'lakli o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplar nisbatan keng tarqalgan. Ergash gapli qo'shma gaplarning boshqa ikki havola bo'lakli turlaridagi kabi bunday gaplarda ham qarshilantirilgan havola bo'laklar mavjud bo'ladi, ya'ni qancha – shuncha, qanchalik – shunchalik kabilar. Bosh gapda shuncha, shunchalik kabi havola so'zlar mavjud bo'ladi va ular o'lchov-daraja holi sintaktik o'rnida keladi. Qancha, qanchalik so'zlari ham ergash gapda shunday o'rinda bo'ladi, demak, ular orasida parallelizm bo'ladi, ikki denotativ voqea harakatning miqdoriy belgisiga ko'ra umumiydir. Voqealar o'rtasidagi musosabat o'zaro tobelanishga ko'ra juda zich bo'ladi. Eski o'zbek tili manbalari tilida biz uning ne qadar birikmasining o'lchov-daraja ma'nosida qo'llanganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan:

Ne qadar suvki ariqqa solur ul,

Ne qilibon, ne qadarkim olur ul (SHN 13)

Natija ergash gapli qo'shma gap. Natija munosabati bunday qo'shma gaplarning mazmunini tashkil qiladi. Ikkinchi voqea birinchi voqeaning natijasi sifatida yuzaga keladi. Shuni aytish kerakki, bosh gapdagi harakat atay, ergash gapdagi harakatning natijasi sifatida o'z-o'zidan kelib chiqadi. Bu qo'shma gapning bu turiga bir necha misol topa oldik. Natija ergash gapli qo'shma gaplar ko'proq bir havola bo'lakdan iborat qo'shma gap turi sanaladi. Misollarga murojaat qilaylik:

Suvga andoqki alar kirdilar,

Degasen suv kishisi erdilar (SHN 188)

Keltirilgan quyidagi misolda ham andoq havola bo'lagi tor bo'ldi ot kesim oldidan kelib uning natijasi borligiga, ya'ni ergash gapga ishora qilib turadi. Ravzana andoq tor bo'ldiki, toshni qisti va anga borg'ali qo'ymadi, to tosh yer bila ko'k orasida turdi (225 NM)

UMUMIY XULOSALAR

O'zbek tili tarixida XVI asr yozma manbalari alohida o'rin egallaydi. Bu davrda takrorlanmas so'z san'atkorlari Yusuf Xos Hojib, Nosiruddin Rabg'uziy hamda Alisher Navoiylar bilan bir qatorda boshqa ijodkorlar o'zlarining yirik-yirik asarlarini yaratishdi. Ularning asarlari sharq olamida ulkan iz qoldirdi va ularning merosi jahon ilm-fan zahmatkashlarining diqqat e'tiboridan tushmay kelmoqda. Ularning ijodi fonetik, leksik va morfologik jihatlardan keng miqyosda o'rganilgan bo'lsa, ularning sintaksisi faqat tor doirada o'rganilgan. Ushbu BMI ham shu bo'shliqni ma'lum qadar to'ldirish vazifasini o'taydi.

Ulug' adib nasriy asarlari o'zbek (turkiy) tilning barcha sintaktik imkoniyatlarini ro'yobga chiqargan boylik sifatida baholanmog'i va bu manba hamon ilmiy-tadqiqot ishlariga asos bo'lib xizmat qilmog'i kerak.

Havola bo'lakli qo'shma gaplar o'zbek tilshunosligida ilmiy jihatdan o'rganilgan, lekin o'zbek tilining tarixiy sintaksisi bunday tadqiqotlarga muhtojlik sezmoqda. Mazkur BMIda havola bo'lakli gaplar ham tarixiy-qiyosiy, ham nazariy jihatdan o'z talqinini topdi.

Mazkur asarlar misolida havola bo'laklarni gaplarni o'rganish quyidagi umumiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

1. Qo'shma gap sintaksisning yuqori sath birliklaridan bo'lib, qismlar o'rtasidagi semantik-sintaktik munosabatlar boshqa quyi sath birliklariga nisbatan o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ergashgan qo'shma gap qismlarini biriktiruvchi vositalar to'g'risida birmuncha ma'lumotlar bo'lishiga qaramay, deyktik birliklar, olmoshlarning qo'shma gap qismlarini biriktirishdagi roli, bunday qo'shma gaplarda shakl va mazmun masalasi e'tibordan chetda qolib keldi.

2. Sintaksis tilshunoslikning nisbatan kam o'zgaruvchan sohasi hisoblanadi. X- XVI asrlarda qo'llangan sintaktik qoliplarning hozirda ham qo'llanilishi buning yorqin misolidir. Bu jihatdan Yusuf Xos Hojib, Nosiruddin Rabg'uziy hamda Alisher Navoiy asarlari sintaksisi ham hozirgi o'zbek tili sintaktik xususiyatlarga

ko‘p jihatlardan o‘xshash bo‘lishi ham tabiiydir, shunga qaramasdan eski o‘zbek tili, xususan, Alisher Navoiy nasriy asarlari sintaktik qurilishining bir bosh bo‘lakli gaplar misolida o‘ziga xos xususiyatlarini kuzatish mumkin. Bular havola bo‘lakli gaplarning qo‘shma gap shakliga ega bo‘lishi, ularning shakliy va mazmuniy xususiyatlarida ko‘zga tashlanadi.

3. Har bir hodisani, shu jumladan, o‘zbek tili sintaksisini qiyosiy-tarixiy planda o‘rganishda an’anaviy tilshunoslik yutuqlarini e‘tiborga olish tarixiy grammatikaning zaruriy shartidir.

4. Ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida shakl va mazmun birligi qonuniyati amal qiladi. Bu qonuniyat tilshunoslikka ham taalluqli, ya’ni shaklini mazmundan, mazmunni shakldan ayriqcha qilish mumkin emas. Ishda ta’kidlanganidek gaplarning shakliy tuzilishi ubzoq yillardan buyon chuqur tadqiq qilingan. O‘rganilayotgan asarlar tilini tadqiq qilish shuni ko‘rsatadiki, kelgusida havola bo‘lakli gaplar semantik planda jiddiy o‘rganilishi lozim.

5. Havola bo‘lakli gaplarning shakliy va mazmuniy paradigmasi X -XVI va hozirgi o‘zbek tili o‘rtasida farqlanish kamligini ko‘rsatadi. Ularni hozirgi o‘zbek tilidagi kabi bir va ikki havola bo‘lakli kabi turlarga ajratish muvofiq.

6. Havola bo‘lakli gaplarning shakllanishida deysiz belgilar – olmoshlarning o‘rni muhim sanaladi. Ya’ni o‘zbek tilidagi olmosh va boshqa nisbiy so‘zlar ana shunday deysiz belgilar bo‘lib, ular qo‘shma gaplarda havola bo‘laklar sifatida ishtirok etishi mumkin. Buning mohiyati shundan iboratki, ular mazmuni – voqea, belgi narsalarni bevosita ifodalamaydi, balki ularga ishora, havola qiladi, shunga ko‘ra ularning mazmuni kuchsiz, bo‘sh so‘zlar sifatida qarash o‘rinli.

7. Bir havola bo‘lakli gaplarning kesimi ot kesimi funksiyasida son, olmosh kabi so‘zlarning kelishi, ikki havola bo‘lakli gaplarning kesimi funksiyasida ot-kesim va fe‘l kesimlarning –sa shart maylida qo‘llanishi Yusuf Xos Hojib, Nosiruddin Rabg‘uziy va Alisher Navoiy asarlari tilining farqlanmasligini qayd etish zarur.

8. Havola bo‘lakli qo‘shma gaplarning semantik munosabatlarini, ya’ni mazmuniy aloqadorligini belgilashda oppozitiv vositalarning o‘rni muhimdir. Bunday oppozitiv vositalar sifatida leksik vositalar alohida o‘rin tutadi.

9. Yuqoridagi adiblarning nasriy asarlaridagi havola bo‘lakli qo‘shma gaplar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qaysi tip qo‘shma gaplarda bo‘lmasin, bog‘lovchilarning qo‘llanishini qayta ko‘rib chiqish lozimligini kun tartibiga qo‘yadi.

10. Alisher Navoiy nasriy asarlaridagi havola bo‘lakli gaplarning qo‘llanilishi uning o‘ziga xosligi masalasi XV- XVI va undan keyingi davrlar tilida o‘zbek adabiy tilining normasini ham aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat 2008, 17 – bet.
3. – Навоий асарлари луғати. 4 томлик. –Т.: 1983. Т.1 – 1983 – 782б., Т.2 – 1983 – 642 б., Т.3 – 1984 – 622 б., Т.4 – 1985 – 636 б.
4. Abdurahmonov G', Sulaymonov A, Xoliyorov X, Omonturdiyev J. Hozirgi o'zbek adabiy tili, Sintaksis. Toshkent 1979, 123-bet
5. Abdurahmonov G'. Qoshma gap sintaksisi. Toshkent, Fan 1964, 90-bet
6. Abdurahmonov G'., Shukurov Sh., O'zbek tilining tarixiy grammatikasi – Toshkent: O'qituvchi, 1973.26-bet
7. Abdurahmonov G'.A “Qo'shma gap sintaksisi asoslari” Toshkent: O'zFA nashriyoti, 1958.
8. Abdurahmonov G'.A “Qo'shma gap sintaksisi asoslari” Toshkent: O'zFA nashriyoti, 1958. Asqarova M.A. Hozirgi zamon o'zbek tilida qo'shma gaplar. Toshkent: O'zFA nashriyoti, 1960
9. Abdurahmonov G'.A. O'zbek tili grammatikasi. Toshkent, 1996, 164-bet
10. Abdurahmonova B. “Qutadg'u bilig” asari ustida ishlash. Toshkent, 2013. 36-bet
11. Asqarova M. Hozirgi zamon o'zbek tilida qo'shma gaplar. Toshkent, 1960, 68-bet
12. Asqarova M. Hozirgi zamon o'zbek tilida qo'shma gaplar. Toshkent, 1960, 68-bet

13. Berdialiyev A. Ergash gapli qo'shma gap konstruksiyalarda semantic-signifikativ paradigmatica. Toshkent, 1989
14. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis, - Toshkent, 1987 163-bet
15. Nurmonov A., Mahmudov N. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent, O'qituvchi, 1995, 180-bet
16. Rahmatov M. Eski o'zbek tilida havola bo'lakli qo'shma gaplar. O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Toshkent, 2011, 71-71 bet
17. А.Сулаймонова, Х.Холиёров, Ж.Омонтурдиев. –Т.: Ўқитувчи, 1979. – 320 б.
18. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. –Т.: Фан, 1987. – 86 б.
19. Абдуллаев Ф. Сўзлар ўзаро қандай боғланади? –Т.: Фан, 1974. – 76 б.
20. Абдуллаев Ф., Иброҳимова Ф. Ўзбек тилида бошқарув. –Т.: Фан, 1982. – 140 б.
21. Абдуллаев Ф., Юсупов М. Эски ўзбек тилида форс-тожик ва арабча изофалар қўлланилишининг баъзи масалалари// Ўзбек тили ва адабиёти. 1981. № 1.
22. Абдупаттоев М.Т. Ўзбек матнида суперсинтактик бутунликлар: Филол. фанлари номзоди ...дис. автореф. –Т.: 1998. – 23 б.
23. Абдурахмонов Г. Исследованиэ по старотюркскому синтаксису (XI в.). – М.: Наука, 1967. –210 с.
24. Абдурахмонов Г. Синтаксис осложненного предложения (к некоторым спорным вопросам синтаксиса тюркских языков)// Структура и история тюркских языков. – М.: 1971. – С.138-148.
25. Абдурахмонов Ф. Қадимги туркий тил. –Т.: Ўқитувчи, 1982. – 168 б.
26. Абдурахмонов Ф. Тарихий синтаксис. –Т.: Фан, 1974. –196 б.

27. Абдурахмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1996. – 244 б.
28. Абдурахмонов Ғ. Ўзбек тили синтаксисиди мураккаб гаплар масаласига доир// Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. –Т.: 1962. –№3 .
29. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. –Т.: Фан, 1984.
30. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис. –Т.: Ўқитувчи, 1973. – 320 б.
31. Абдурахмонов Х. Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар. –Т.: Фан, 1971. – 184 б.
32. Абузалова М.Қ. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиши қолипи ва унинг нутқда воқеланиши: Филол. фанлари номзоди ...дис. автореф. –Т.: 1994. – 21 б.
33. Азимов И.. Кесим марказли қўшма гаплар: Филол. фанлари номзоди...канд. дис. –Т.: 2002. – 99 б.
34. Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тилида эргашуш формалари ва эргаш гаплар. –Т.: Фан, 1966. – 345 б.
35. Белошапкива В.А. Современный русский язык. Синтаксис. – М.: Высшая школа, 1977. – 267 б.
36. Бердалиев А. Эргаш гапли қўшма гап конструкцияларида семантик-симидикатив парадигматика. – Т.: Фан, 1989. – 107 б.
37. Болтабоева Ҳ. Ўзбек тилида мураккаблашган гаплар. –Т.: Фан, 1969. – 174 б.
38. Виноградов В.В Избранные трудыю Исследования по русской грамматике. -М 1975. с. 102
39. Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент, Ўқитувчи. 1987. 187-б.
40. Ковтунова И.И. Современный русский язык/Порядок слов и актуальное членение предложения. –Москва: Просвещение, 1976. –239 с.

41. Қурбонова М.М. Ўзбек тилшунослигида форма-функционал йўналиш ва содда гап қурилиши талқини: Филол. фан. докт. дис. Автореферати. –Т.: 2001. – 51 б.
42. Назарова Х. Особенности синтаксического строя узбекского литературного языка конца XV – начала XVI в. –Т.: Фан, 1979. – 159 б.
43. Нурмонов А. Маҳмудов М. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. - Т., Ўқитувчи, 1995. - 232 б.
44. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Акбаров А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Т.: Фан, 1992. – 294 б.
45. Нурмонов А.Н. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. –Т.: ТДПИ, 1988. – 100 б.
46. Петерсон М.Н. Очерк синтаксиса русского языка. –М, 1923 с-32
47. Пешковский А. М. Русский синтаксис в научном свещении. 1956.
48. Сайфуллаева Р. Хозирги ўзбек адабий тилида қўшма гапларнинг шакл-вазифавий (формал-функционал) талқини: Филол. фанлари д-ри ... дис. автореф. –Т.: 1993. – 48 б.
49. Ўзбек тили грамматикаси: II том. Синтаксис. –Т.: Фан, 1976. – 560 б.
50. Умарова Н. Алишер Навоий ғазаллари мақтасида сабаб ва оқибат муносабатларининг ифодаланиши: Филол. фанлари номзоди. ...дис.автореф. –Т.: 2005. – 23 б.
51. Фозилов Э.И. Қадимги обидалар ва Алишер Навоий тили. –Т.: Фан, 1969. – 87 б.
52. Ҳайитметов К. Ўзбек тилида гапнинг актуал бўлиниши ва позицион масалалари. – Т., Фан, 1984. – 159 б.
53. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Синтаксис// Ғ.Абдурахмонов, Abdurahmonov G', Sulaymonov A, Xoliyorov X, Omonturdiyev J. Hozirgi o'zbek adabiy tili, Sintaksis. Toshkent 1979, 123-bet